

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**AMALIY MATEMATIKA VA INFORMATIKA FAKULTETI  
OPTIMAL BOSHQARUV USULLARI KAFEDRASI**

Ro'yxatga olindi:  
№ \_\_\_\_\_  
2019 yil «\_\_» \_\_\_\_\_

“Tasdiqlayman”  
O'quv ishlari bo'yicha prorektor  
\_\_\_\_\_ prof. A.S. Soleev  
“\_\_” \_\_\_\_\_ 2019 yil

**«INFORMATIKANI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI VA  
LOYIHALASHTIRISH»**

**O'QUV – USLUBIY MAJMUUA**  
(Moddle tizimi asosida)

**Bilim sohasi:** 100000 - Gumanitar soha  
**Ta'lim sohasi:** 110000 - Pedagogika  
**Ta'lim yo'nalishi:** 5110700 - Informatika o'qitish metodikasi

<b>Tuzuvchi:</b>	SamDU Amaliy matematika va informatika fakulteti, “Optimal boshqaruv usullari” kafedrası dotsenti <b>I.N. Bozorov</b>
<b>Kafedra mudiri:</b>	<b>dots. I.N. Bozorov</b>
<b>Fakultet dekani:</b>	<b>dots. A.I. Babayarov</b>

**Samarqand - 2019**

**I.N. Bozorov.** “Informatikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” fanidan o‘quv-uslubiy majmua. – Samarqand: SamDU nashri – 2019. 160 bet.

“Informatikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” fanidan ushbu o‘quv-uslubiy majmua oliy o‘quv yurtlari 5110700 - Informatika o'qitish metodikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

E. O‘runbayev – SamDU, “Matematik modellashtirish” kafedrası dotsenti, t.f.n.

Q. Ostonov – SamDU, “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” kafedrası dotsenti, p.f.n.

SamDU o‘quv – uslubiy kengashining 2019 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ -qarori bilan o‘quv-uslubiy majmua sifatida nashrga tavsiya etilgan.

**Tuzuvchi:** – Amaliy matematika va informatika fakulteti,  
“Optimal boshqaruv usullari” kafedrasida dotsenti

**I.N. Bozorov**

Mazkur ushbu o'quv-uslubiy majmua Samarqand davlat universiteti 5110700 – Informatika o'qitish metodikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi “Informatikani o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

“Optimal boshqaruv usullari” kafedrasining 2019 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-son majlisida muhokama etilgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_ **dots. I.N. Bozorov**

“Amaliy matematika va informatika” fakulteti o'quv-uslubiy kengashining 2019 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_”-son qarori bilan tasdiqlangan.

**O'quv-uslubiy kengashi raisi:** \_\_\_\_\_ **dots. Sh. Mamatov**

“Amaliy matematika va informatika” fakulteti ilmiy kengashining 2019 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_”-son qarori bilan chop qilishga tavsiya etilgan.

**Fakultet kengashi raisi:** \_\_\_\_\_ **dots. A.B. Babayarov**

Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

\_\_\_\_\_ **dots. B.S. Aliqulov**

## ANNOTATSIYA

Ilmiy-texnika revolyusiyasi davri deb haqli ravishda atalayotgan bizning davri-mizda fan tomonidan tashkillashtirish va boshqarish masalariga yanada ko'proq e'tibor berilmoqda. Bunining asosiy sabablardan biri xozirgi kunga kelib xalq xo'jaligining nihoyatda ko'p qirrali, murakkab tizilma shaklida namoyon bo'layotganligidir. Bunday sharoitda ko'p sonli aloqa va boqlanishlarni hisobga olgan holda samarali boshqarishni tashkillashtirish uchun ilmiy yondoshishning zarurligi o'z-o'zidan ravshan bo'lib qolmoqda.

Inson amaliy faoliyatining xilma-xil sohalarida ishlab chiqarishni va ta'minotni tashkillashtirishda, transportdan foydalanishda, kadrlarni joy-joyiga qo'yishda, soqlikni saqlashda, aloqada, harbiy harakatlarda va shu kabilarda murakkab chora-tadbirlar, harakatlar tizimini amalga oshirish maqsadida to'qri, oqilona qarorlar qabul qilish uchun matematik, miqdoriy usularning qo'llanilishi jarayonlarni tadqiq qilishfanining paydo bo'lishi va jadal rivojlanishiga olib keldi.

Jarayonlar tadqiqoti - eng umumiy ma'noda tashkiliy boshqaruv tizimlari ishi bilan boqliq masalalarga, ularni boshqaruvchilarga optimal yechimlar berish maqsadida, ilmiy prinsiplar, usullar va vositalarni qo'llash deb ta'riflanishi mumkin.

“Jarayonlar tadqiqoti”ning asosiy predmeti - bir-biri bilan uzviy boqlangan obyektlar majmuasidan iborat bo'lgan va muayyan maqsadga erishishga xizmat qiluvchi tizimlardir.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua oliy o'quv yurtlari 5110700 - Informatika o'qitish metodikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

## MUNDARIJA

1. **SILLABUS** .....
2. **NAZARIY O'QUV MATERIALLAR** .....
3. **GLOSSARIY** .....
4. **FOYDALANILGAN ELEKTRON MANBALAR** .....
5. **MUSTAQIL TA'LIM UCHUN MATERIALLAR** .....
6. **AMALIYOT MASHG'ULOT ISHLANMALARI** .....
7. **ILOVALAR** .....

**«Informatikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish» fanining  
2019/2020 o‘quv yili uchun mo‘ljallangan  
SILLABUSI**

<b>Fanning qisqacha tavsifi</b>			
<b>OTMning nomi va joylashgan manzili:</b>	Samarqand davlat universiteti		Universitet xiyoboni, 15
<b>Kafedra:</b>	Optimal boshqaru usullari		Rektorat tarkibida
<b>Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:</b>	Ta’lim sohasi: 110000 - Pedagogika	Ta’lim yo‘nalishi: 5110700 - Informatika o‘qitish metodikasi	
<b>Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:</b>	O‘qituvchi: Bozorov Islom Namozovich	e-mail:	<a href="mailto:islomb@mail.ru">islomb@mail.ru</a>
<b>Dars mashg‘ulotini o‘tkazishning vaqti va joyi:</b>	O‘quv-uslubiy bo‘lim tomonidan ishlab chiqilgan jadval asosida universitetning o‘quv binolarida	Kursning boshlanish va davom etish muddati:	Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq, 5-7 semestrda
<b>Individual grafik asosida professor-o‘qituvchining talabalar bilan ishlash vaqti:</b>	Haftaning dushanba, chorshanba va juma kunlari 15.00 dan 17.00 gacha		
<b>Fanning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi (prerekvizitlari):</b>	Informatika va axborot texnologiyalari, algoritmlar nazariyasi, dasturlash asoslari, pedagogika va psixologiya, informatika o‘qitish metodikasi fanlari bilan uzviy bog‘liq va ushbu fanlarni bilish zarur. Bu fan usullari amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan iqtisodiy masalalarni yechishda keng qo‘llaniladi.		
<b>Fanning mazmuni</b>			
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	<p style="text-align: center;"><b>Fanning maqsadi va vazifalari.</b></p> <p>Informatikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish fanini o‘qitishdan maqsad - informatika o‘qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar va amalda qo‘llash uchun kunikma va makalalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Unda har bir kasb egasining faoliyati kerak bo‘lgan tayanch nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Fanning ta’limdagi o‘rni</b></p> <p>“Informatikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” fanidan olingan bilim, ko‘nikma va malakalar umumta’lim</p>		

maktablari, akademik litsey va kasb- hunar kollejlardagi kasbiy faoliyatida asosiy o‘rin tutib, yoshlarga bilim berishda va mutaxassis tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litsey va kasb - hunar kollejlarda “Informatika” yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitish uchun kadrlarni tayyorlab beradi.

### **Fan bo‘yicha talabning malakasiga qo‘yiladigan talablar**

“Informatikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- informatika o‘qituvchisi innovasion pedagogik faoliyatining nazariy- metodik asoslari, uzluksiz ta‘lim tizimi informatika o‘qituvchisining innovasion pedagogik faoliyati va uni amalga oshirish metodikasi, ta‘lim tizimida informatika fanlarining maqsadi, mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlashga qaratilgan innovasiyalar va texnologiyalar, multimediyali darslar asosida informatika ta‘limi samaradorligini oshirish, ta‘lim jarayonini loyihalashtirishning ilmiy metodik asoslari, informatika o‘qituvchisining pedagogik faoliyatini, informatika fanlarining mazmunini, o‘quv mashg‘ulotlarini, kasbga yo‘naltirib muammoli o‘qitishni (keys), informatikani zamonaviy vositalar asosida o‘qitishni, informatikadan darsdan tashqari mashg‘ulotlarni loyihalashtirishga doir bilimga;

- pedagogik faoliyat, informatika o‘qituvchisining pedagogik faoliyatiga qo‘yiladigan asosiy talablar, uzluksiz ta‘lim tizimi informatika o‘qituvchisining innovasion pedagogik faoliyati, informatika o‘qituvchisini innovasion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish vositalari, informatika ta‘limida an‘anaviy va noan‘anaviy ta‘lim texnologiyalari, informatikani o‘qitishda hamkorlikda, jamoada, muammoli o‘qitish; modul, didaktik-o‘yin texnologiyalari, informatika darslarida o‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari, ta‘lim jarayonini loyihalashtirishning dolzarbligi, loyiha texnologiyasi. innovasion pedagogik muhitni tashkil etish vositalari, ilmiy axborotni o‘quv axboroti sifatida qayta ishlashga o‘rgatish, hamkorlikda, modulli o‘qitishni loyihalashtirish, informatika ta‘limida o‘quvchilar bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish ko‘nikmasiga;

-innovation o'quv-biluv faoliyati, maxsus kurslar, malakaviy amaliyotlarni tashkil etish va rejalashtirish, informatika ta'limida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash, o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish, informatikani o'qitishda hamkorlikda, jamoada, muammoli o'qitish; modul, didaktik-o'yin texnologiyalaridan foydalanish, innovation pedagogik muhitni tashkil etish vositalar bilan ishlash, fan dasturi, ishchi dasturi asosida kalendar tematik rejani tayyorlash, o'quv maqsadi va natijalarini loyihalashtirish, informatikani kasbga yo'naltirib muammoli o'qitishni (keys) loyihalashtirish, informatika ta'limida o'quvchilar bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish malakasiga ega bo'lishi lozim.

### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi**

Informatikani o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish fani informatika va axborot texnologiyalari, algoritmlar nazariyasi, dasturlash asoslari, pedagogika va psixologiya, informatika o'qitish metodikasi fanlari bilan uzviy bog'liq va ushbu fanlarni bilish zarur. Bu fan usullari amaliy ahamiyatga ega bo'lgan iqtisodiy masalalarni yechishda keng qo'llaniladi.

### **Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

<p>Talabalar uchun talablar</p>	<p>Universitetning odob-ahloq qoidalari talablariga qat'iy rioya qilish, shuningdek: -professor-o'qituvchi auditoriga kirganida o'tirgan joydan turib "Assalomu alaykum" deb kutib olish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish;</li> <li>- professor-o'qituvchidan so'ng dars mashg'ulotiga kech kelgan talaba auditoriyaga kiritilmaydi;</li> <li>- professor-o'qituvchi va guruhdoshlarga qo'pollik qilmaslik, so'z talashmaslik, hurmat bilan munosabatda bo'lish;</li> <li>- universitet ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish;</li> <li>- kiyinish talablari (madaniyati) ga rioya qilish;</li> <li>- mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqmaslik (umuman dars jarayonida auditoriyadan sababsiz chiqishga ruxsat berilmaydi);</li> <li>- uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;</li> <li>- ko'chirmachilik (plagiat) qilmaslik;</li> <li>- darslarga qatnashish majburiy, sababsiz 2 (ikki) va undan ortiq dars qoldirgan talaba keyingi mashg'ulotlarga tegishli sabablarni aniqlaganidan keyin fakultet dekanining ruxsati bilan dars mashg'ulotlariga kiritiladi;</li> <li>- sababli dars qoldirilgan taqdirda, professor-o'qituvchiga ma'lumotnoma taqdim etish;</li> <li>- har qanday holatlarda ham qoldirilgan darslar qayta o'zlashtirilishi shart;</li> <li>- ma'ruza va amaliy darslariga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;</li> <li>- qo'shimcha ravishda bajarilgan taqdimot, mustaqil ish, referat, turli xil tadbirlar va ilmiy- amaliy anjumanlarda</li> </ul>
	<p>ma'ruzalar bilan ishtirok etganligi uchun qo'shimcha ballar beriladi;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- talabaga o'z vaqtida bajarilmagan mustaqil ish, uy vazifasi, tartib</li> <li>- intizomi bo'yicha jarima ballari belgilanadi;</li> <li>- talaba reyting ballidan norozi bo'lsa fan bo'yicha nazorat turlari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat qiladi va apellyatsiya komissiyasi shu kunning o'zida talabaning arizasini ko'rib cliiqib xulosa cliiqaradi.</li> </ul>
<p>Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi</p>	<p>Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali balio masalasi muhokama qilimnaydi, lekin oraliq, joriy va yakuniy baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtoni ocliish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha.</p>

### Fan mavzulari va unga ajratilgan soatlar taqsimoti:

<b>T/r</b>	<b>Mavzular nomi</b>	<b>Ma'ruza</b>	<b>Laboratoriy</b>	<b>Seminar</b>	<b>Mustaqil</b>	<b>Jami</b>
1	Ta'lim jarayonini loyihalashtirishning dolzarbligi.	2			2	4
2	Informatika o'qituvchisining pedagogik faoliyatini loyihalashtirish.	2	2	2	4	10
3	Loyiha texnologiyasi.	2	2		2	6
4	Ta'lim jarayonini loyihalashtirish.	2	2	2	2	8
5	Innovasion pedagogik muhitni tashkil etish vositalari.	2	2		2	6
6	Innovasion pedagogik jarayonni loyihalashtirishning ilmiy metodik asoslari	2	2		4	8
7	O'quv fani dasturi, ishchi dasturi asosida kalendar tematik rejani tayyorlash, o'quv mashg'uloti darajasida informatika mazmunini loyihalashtirish, ilmiy axborotni o'quv axboroti sifatida qayta ishlashga o'rgatish.	2	2	2	4	10
8	O'quv maqsadi va natijalarini loyihalashtirish.	2	2		2	6
9	Informatikani o'qitish maqsadi, metod va vositalari, natijalarini loyihalashtirishning nazariy asoslari.	2	2	2	2	8
10	O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish.	2	2		2	6
11	Bilimlarni nazorat qilish va baholashning innovasion metodlarini loyihalashtirish.	2	2	2	2	8
12	Hamkorlikda, modulli o'qitishni loyihalashtirish.	2	2		2	6
13	Informatikani kasbga yo'naltirib muammoli o'qitishni (keys) loyihalashtirish.	2	2		2	6
14	Informatika ta'limida o'quvchilar bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish.	2	2		4	8
15	Informatikani zamonaviy vositalar asosida o'qitishni loyihalashtirish.	2	2		2	6
16	Informatikadan darsdan tashqari mashg'ulotlarni loyihalashtirish.	2	2	2	4	10
<b>Jami:</b>		<b>32</b>	<b>30</b>	<b>12</b>	<b>42</b>	<b>116</b>

## Dasturning informasion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarni, zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llanilishi nazarda tutilgan.

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;
- amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalaridan;
- laboratoriya mashg'ulotlarida zamonaviy kompyuter sinflaridan foydalanish ko'zda tutilgan. Shuningdek buguni kun talabiga javob beradigan dasturlash tillaridan Paskal, Delphi dasturlash tillarini o'ratuvchi disk ham bo'lishi lozim.

### Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

<b>Asosiy adabiyotlar:</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. U.K.Tolipov, M.Usmanboyeva. Pedagogik texnologiyalarninig tabiiy asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Fan", 2006 y.</li><li>2. P.Ишмухамедов, А.Абдуқодиров, А.Пардаев. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог ўқитувчилар учун амалий тавсиялар). Ўқув қўлланма. Тошкент, "Истеъдод", 2008 й.</li><li>3. A.Abduqodirov, A.Xaitov, Shodiev R. Axborot texnologiyalari. Darslik. T.: "O'zbekiston", 2004 y.</li><li>4. A.Sattorov. Informatika va axborot texnologiyalari. Darslik. T.: "O'qituvchi", 2008 y.</li><li>5. Ж.Ф.Йўлдошев, С.А.Усмонов. Педагогик технология асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент, "Ўқитувчи", 2004 й.</li><li>6. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. T.: TDPU, 2003 y.</li><li>7. Федотова Д. CASE-технология. Москва, «Издательский дом БХВ», 2003 г.</li><li>8. Цой, Маргарита и др. Создание электронных учебников. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2007 г.</li></ol>
----------------------------	---

<b>Qo‘shimcha adabiyotlar:</b>	<p>1. M. Mamarajabov va boshqalar. “Axborot texnologiyalari” fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish metodikasi. Metodik qo‘llanma. T.: TDPU, 2012y.</p> <p>2. R. R. Boqiyev. “Informatika” fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish metodikasi. Metodik qo‘llanma. T.: TDPU, 2012 y.</p> <p>3. Юлдашев У.Ю, Зокирова.Ф.М. Методика преподавания информатики. Т.: “Алоқачи”, 2005 г.</p> <p>4. Закирова Ф.М., Набиулина Л.М.. Тестовые задания по курсу «Информатика и информационные технологии». Т.: “Алоқачи” 2008 г.</p> <p>5. И.Г.Захарова. Информационные технологии в образовании. Москва, “Академия”, 2003 г.</p>
<b>Internet resurslar</b>	<p>1. <a href="http://www.tdpu.uz">www.tdpu.uz</a></p> <p>2. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></p> <p>3. <a href="http://www.edu.uz">www.edu.uz</a></p> <p>4. <a href="http://www.ctc.msiu.ru/materials/Book1,2/index1.html">http://www.ctc.msiu.ru/materials/Book1,2/index1.html</a></p> <p>5. <a href="http://www.ctc.msiu.ru/materials/CS_Book/A5_book.tgz">http://www.ctc.msiu.ru/materials/CS_Book/A5_book.tgz</a></p> <p>6. <a href="http://www.vspu.ac.ru/mvv/mpi/mpi-uch.htm">www.vspu.ac.ru/mvv/mpi/mpi-uch.htm</a></p> <p>7. <a href="http://altnet.ru/mcsmall/index.htm">http://altnet.ru/mcsmall/index.htm</a></p> <p>8. <a href="http://oiwt.narod.ru">http://oiwt.narod.ru</a></p> <p>9. <a href="http://www.phis.org.ru/informatika">http://www.phis.org.ru/informatika</a></p> <p>10. <a href="http://teacher.fio.ru">http:// teacher.fio.ru</a></p> <p>11. <a href="http://www.metod-kopilka.ru">http://www.metod-kopilka.ru</a></p>

### **“Informatikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” fanidan talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash mezonlari**

“Informatikani o‘qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat,

nazorat ishi, kollektivum, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

- **oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabanning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

- **yakuniy nazorat (YaN)** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” shaklida o'tkaziladi.

**ON** o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabanning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Informatikani o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish» fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>Talabalarning bilim darajasi</b>
-------------	-------------	-------------------------------------

86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

- Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

- Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

- Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi:  $R = V \cdot O' / 100$ , bu yerda:  $V$ – semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);  $O'$ – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

- Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

- **ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun,

navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 balidan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

- Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

- Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

#### **Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>ON ballari (maks.)</b>
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to'liqligi.	15
2	Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	10
<b>Jami ON ballari</b>		<b>35</b>

#### **Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>JN ballari (maks.)</b>
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'u-lotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftarlarining yuritilishi va holati	15

2	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10
<b>Jami JN ballari</b>		<b>35</b>

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

№	Ko'rsatkichlar	JN ballari	
		maks.	O'zgarish oralig'i
1	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	6	0-6
2	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	24	0-24
<b>Jami JN ballari</b>		<b>30</b>	<b>0-30</b>

### **Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari**

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 3 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabanning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish ballari hisoblanadi.




1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	
3.10	Маълумотлар билиши	318		192	66	44	82			126				4					
3.11	Тармоқ техника биллиги	170		100	30	24	46			70				5					
3.12	Компьютер таълимоти	402		270	86	68	116			132	4	2	6	2					
	Танлов фанлари	126		86	26	26	34			40							4	4	
4.00	Ихтисослик фанлари	1078	14.68	604	182	142	260	20	1 км	474	3	6	3	2	6	10	10		
4.01	Компьютерли моделлаштириш	162		94	22	26	46			68						2	2	4	
4.02	Педагогик дастурий воситалар	212		108	32	32	44			104							2	4	2
4.03	Ахборот хавфсизлиги	228		140	36	40	64			88		3	3	1					
4.04	Информатика Уштинчи технологиялари ва домдалаштириш	180		114	48		46	20	1 км	66				2	2	2			
	Танлов фанлари	296		148	44	44	60			148			3				4	4	
5.00	Қўшимча фанлар**	530	7.22	340	112	124	78	26		190	4	2				2	8	16	
	Жами	7344	100	4352	1434	1326	1162	430	3 км	2992	32	32	32	32	32	32	32	32	
	Ма.такалий амалиёт	756																	
	Битирув ма.такалий иши	270																	
	Аттестациялар	918																	
	Жами	1944																	
	ХАММАСИ	9288																	

**Ишот:**


- Олий таълим муассасаси ихтисослик фанлари рўйхатини тузишда кадрлар буюртмачиларининг талабларини таъбирига оид.
- Харбий таъбирарлик машулотлари қўшимча фанлар блокнинг соғатлари ҳисобига, харбий йилни эса таълим вақти ҳисобига ўқитилади. Харбий таъбирарлик машулотлари ўқатиладиган ҳолатда меҳнат бозори ва кадрлар буюртмачиларининг талабларига мослашувчанлиги ва ҳаракатчанлигини таъминлаш учун ОТМ кенгашининг қарори билан фойдаланилади.
- Ўқув режа асосида олий таълим муассасаси ҳар йили ишчи Ўқув режасини тунди. Бунда олий таълим муассасасига талаблар иктамасинини ҳафталик ҳажмининг сақолини ҳолда Ўқув фанлари блок ҳажмининг 5 фангаича, блоклар таркибиданги фанлар ҳажмининг 10 фангаича ўзгартириш ҳуқуқи берилди.
- Таълим билимининг баҳолаш режасини таълимга мувофиқ Ўқув жараёни давомида амалга оширилади.
- Битирув ма.такалий ишини бажариш мўддатлари таркибига уни ҳимоя қилиш ҳам киритилди.
- Хорижий тили фақининг охириги 7-8-семестрларда битирувчи курс учун қўшимча фанлар блок ва танлов фанлари соғатлари ҳисобига ҳар ҳафта 2 соғатдан "Амалий инглиз тили" фани ўқитилди.
- \*Жисмоний маданият фани таркибига "Валеология асослари" курсини 12 соғат ҳажмда маъруза, 16 соғат ҳажмда амалий машулот ўқитиш қўли тутилди.
- \*\*"Социология" фани қўшимча фанлар блокда 7-семестрда 12 соғат ҳажмда маъруза, 14 соғат ҳажмда семинар машулот ўқитиш қўли тутилди.
- Ўқув режаси киритилди олий таълимга оид фанларнинг амалий ва лаборатория машулотлари олий таълим муассасаси, баҳалий таълим ва корхоналарда ўқитилди.
- Ишот ва амалиёт яхлитлигини таъминлаш учун талабаларнинг ма.такалий амалиётлари таълим муассасаси, баҳалий таълим ва корхоналарда ўқитилди.

Ўқув жараёнининг таркибий қисмлари	Ҳафталар сон	Семестр	Давлат аттестацияси
Ишот таълим	136	1-8	1. Ҳуқуқ ва ижтимоий-иқтисодий фанлардан
Ма.такалий амалиёт	14	6,7, 8	2. Хорижий тили
Аттестациялар	15+2(ДА)	1-8	3. Битирув ма.такалий ишини ҳимоя қилиш
Битирув ма.такалий иши	5	8	
Таълим	32	1-8	
Жами	204		

Янги дастурлар ва Ўқув адабиётларининг жорий этилишини назорат қилиш бош бошқармаси бошлиғи

  
О.Нематов


Ма.такалий-ахлоқий тарбия бошқармаси бошлиғи

  
О.Базаров

ОЎМҚХТМ директори

  
Б.Рахимов

Ишот номиданги ТДПУ ректори

  
Ш.Шарипов

Кадрлар буюртмачилари: Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсу таълим вазирлиғи ОЎМҚХТМ директори ўринбосари


  
О.Ризиев

Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиғи Республика таълим вазирлиғи директори

  
О.Абдуражабов

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсу таълим вазирлиғининг Олий ва ўрта махсу таълим хуқуқ таълим пўналишлари бўйича бўжасида бир.лишмалар фаолиятини мувофиқлаштирувчи кенгашида маъқуланган

2017 йил 18.08 дақи 4 -сонли баённома





1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
3.04	Берилганлар структураси ва алгоритмлар	182		108	42	66			кн	74		108						
3.05	Оддий дифференциал тенгламалар	182		108	54	54				74			72	36				
3.06	Функционал анализ	122		72	36	36				50				72				
3.07	Хусусий хосилани дифференциал тенгламалар	182		108	54	54				74					36	72		
3.08	Математик моделлаштириш	189		112	44	68				77						72	40	
3.09	WEB дастурлаш технологиялари	182		108	26	82			кн	74					54	54		
3.10	Тизimli дастурлаш	122		72	36	36			кн	50					72			
3.11	Соғли усуллар	210		126	60	66				84			54	72				
3.12	Ахборотни химоялаш	93		55	30	25				38								55
3.13	Умумий психология	90		54	26			28		36							54	
3.14	Умумий педагогика	90		54	26			28		36								
	Танлов файллари	300		181	60	121				119								60
4.00	Ихтисослик файллари	659	9	388	180	208				278				72		36	140	140
4.01	Оптималлаштириш усуллари	101		60	30	30				41								60
4.02	Операциялар таджоти	94		56	28	28				38						36	20	
4.03	Компьютер графикаси	138		82	40	42				56								60
4.04	Берилганлар базасини бошқариш тизимлари	122		72	30	42				50				72				22
4.05	Танлов файллари	204		118	52	66				86								118
5.00	Қўшимча таъбиргарлик	450	7	216	108	108				234					144	72		
5.1	Чекли элементлар усули	150		72	36	36				78								
5.2	Интернет муҳитида илов. яратиш	150		72	36	36				78					72			
5.3	Чекли улчовли экстремал масалалар ва уларни ечишнинг соғли усуллари	150		72	36	36				78					72			
	ЖАМИ	6966	100	4128	1694	2070		364	Экн	2838	32	32	32	32	32	32	32	32
	Малака амалиёт	972										108		216		216	432	
	Битирув малакавий иши	324																324
	Аттестациялар	1026										108	108	108	108	180	108	108
	ХАММАСИ	9288																270

Ўқув режа Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 26.03.2016 йилдаги 2 рақамли буйруғи билан тасдиқланган ўқув режа асосида тузилди.

Ўқув жараёнининг таркибий қисмлари	Хафталар сон	Семестр	Давлат аттестацияси
Назарий таълим	129	1-8	1. Гуманитар ва ижтимоий-иқтисодий фанлардан
Малака амалиёти	18	2, 4, 6, 7	2. Чет тили
Аттестациялар	16+3 (Д)	1-8	3. Битирув малакавий ишини ҳимоя қилиш
Битирув малакавий иши	6	8	
Таътил	32	1-8	
Жами	204		

Самарқанд давлат университети  
Ўқув-услубий кенгаш томонидан маъқулланди.  
2018 йил «3» 07 10 соғли баённома.

Самарқанд давлат университети  
Илмий кенгаш томонидан маъқулланди.  
2018 йил «6» 07 13 соғли баённома.

Амалий математика ва информатика факультети декани

Ахборотлаштириш технологиялари кафедраси мудири

Математик моделлаштириш ва комплекс дастурлаш кафедраси мудири

Оптимал бошқарув усуллари кафедраси мудири

Амалий математика ва информатика факультети  
ўқув ишлари бўйича декан муовини

А.Р.Ахатов

И.И.Жуманов

Б.Х.Хужаеров

И.Н.Бозоров

Н.Н.Низамова



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:

№ 1312  
2019 yil «    »



«INFORMATIKANI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI  
VA LOYIHALASHTIRISH» fanidan

ISHICHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha  
Ta'lim sohasi: 130 000 – Matematika  
Ta'lim yo'nalishi: 5110700 - Informatika o'qitish metodikasi

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Jami
		7-semestr (4-kurs)	
1.	Ma'ruza	24	24
2.	Laboratoriya	24	24
3.	Seminar	8	8
4.	Mustaqil ish	36	36
	<b>Jami:</b>	<b>92</b>	<b>92</b>

Samarqand – 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv reja va namunaviy o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:** I.N.Bozorov - SamDU, «Optimal boshqaruv usullari» kafedrasida dotsenti, f.-m.f.n.

**Taqrizchi:** Q.Ostonov – SamDU, «Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika» kafedrasida dotsenti, p.f.n.  
Sh.S.Mamatov - SamDU, «Matematik modellashtirish va kompleks dasturlash» kafedrasida dotsenti, f.-m.f.n

Fanning ishchi o'quv dasturi Optimal boshqaruv usullari kafedrasining 2019 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi "\_\_\_"-son majlisida muhokama etilgan va ma'qullangan.


Kafedra mudri:  dots. I.N.Bozorov

Fanning ishchi o'quv dasturi Amaliy matematika va informatika fakulteti o'quv-uslubiy kengashining 2019 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi "\_\_\_"-son qarori bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy kengash raisi:  dots. Sh.S.Mamatov

Fanning ishchi o'quv dasturi Amaliy matematika va informatika fakulteti ilmiy kengashining 2019 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi "\_\_\_"-son qarori bilan tasdiqlangan.

Fakultet kengashi raisi:  dots. A.I.Babayarov

Kelishildi:  
O'quv-uslubiy  
boshqarma boshlig'i  
  
\_\_\_\_\_ dots. Aliqulov B.S.

# I MODUL. INFORMATIKA O'QITUVCHISI INNOVASION PEDAGOGIK FAOLIYATINING NAZARIYMETODIK ASOSLARI

## 1-ma'ruza. Informatika fani o'qituvchisining pedagogik faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablar

### Reja:

1. Informatika fani o'qituvchisi kasb faoliyati strukturasi algoritmi.
2. Ta'lim samaradorligini oshirishda sifat nazoratini tashkil etishda o'qituvchilarning vazifalari.

**Tayanch iboralar:** *Tarbiyachilik qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, pertseptiv qobiliyat, informatsion qobiliyat, didaktiv qobiliyat, yo'naltiruvchi qobiliyat, safarbar etuvchi qobiliyat, rivojlantiruvchi qobiliyat, kreativ qobiliyat, gnostik (tadqiqotchilik) qobiliyat, ta'limda sifat, ta'lim sifatini belgilovchi omillar.*

### 1. Informatika fani o'qituvchisi kasb faoliyati strukturasi algoritmi.

O'qituvchining kasb faoliyati strukturasi muammosi bilan asosan Rossiya olimlaridan N.V.Kuzmina, A.I.Herbakov va V.A.Slastyoninlar shug'ullangan. Pedagog, ya'ni o'qituvchi va tarbiyachining kasb faoliyati strukturasi ayni paytda pedagogik qobiliyatlar ham deyiladi.

O'qituvchi shaxsining faoliyatida kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash ustivor ahamiyatga ega bo'lganligi uchun uning kasb faoliyati strukturasi birinchi o'rinda tarbiyachilik qobiliyati turadi.

O'qituvchining kasb faoliyati strukturasi quyidagi algoritm tartibida kelishi mumkin:

1. Tarbiyachilik.
2. Tashkilotchilik.
3. Kommunikativ.
7. Yo'naltiruvchi.
8. Safarbar etuvchi.
9. Rivojlantiruvchi.

4. Pertseptiv.

10. Kreativ.

5. Informatsion

11. Gnostik (tadqiqotchilik).

6. Didaktiv.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda o'qituvchining kasb faoliyati strukturasi uning kasbiy sifatlari yoki kasb qobiliyatlari deb ham sanaladi. Bu struktura asosida o'qituvchining yuzlab kasb sifatlari va fazilatlari aniqlangan. Jumladan, 200 ga yaqin ijobiy sifatlari, ya'ni qobiliyatlari va 60 dan ortiq salbiy kasb sifatlari o'rganilgan.

O'qituvchining kasb faoliyati strukturasi quyidagicha tavsiflash mumkin.

1. *Tarbiyachilik qobiliyati* - tarbiyachilik - bu yuksak darajadagi san'at bo'lib, shaxsni ijtimoiy hayot talablariga javob bera olish qobiliyatini bildiradi. Tarbiyachilik qobiliyati shaxsni tarbiyalashga emas, o'z-o'zini tarbiyalay olishga yo'naltira bilishda qaror topadi. Bugungi tarbiyaning maqsadi ham aynan mustaqil fikrlay oladigan va o'zini-o'zi tarbiyalash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslarni shakllantirishga qaratilgan.

2. *Tashkilotchilik qobiliyati* - ta'lim-tarbiya ishini samarali yo'lga qo'yishda o'qituvchining tashkilotchilik qobiliyati alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda sinf yoki guruh jamoasini uyushtira olish, har bir o'quvchi yoki talaba bilan individual shug'ullanish uchun ularni yosh, jins hamda yakka tartibdagi xususiyatlarini bilish, o'quvchi-talabalarni hohish istaklari, muammolarini eshitish va ularning echimini topishda ko'maklashish, qo'shimcha darslar, to'garaklar, tarbiyaviy darslar o'tkazishga oid tegishli shart-sharoitlar yaratish kabi ishlar kiradi.

3. *Kommunikativ qobiliyat* - "O'qituvchi-o'quvchi", ota-onalar, jamoatchilik, mahalla va boshqa tashkilotlar bilan to'g'ri munosabat hamda kasbiy-madaniy aloqalar o'rnatishga qaratilgan.

4. *Pertseptiv qobiliyat* - o'quvchi va talabaning qalbiga yo'l topa olish, o'z navbatida uni qalban his etib, o'zining o'rniga qo'yib ko'ra bilish, yoshlarni ruhiy ma'naviy olamini o'rganish, unga ob'ektiv baho berish, bolani psixologik xususiyatini bilgan holda uning kayfiyati, hissiyoti, diqqati va boshqa psixik jarayonlarini o'rganib borish o'qituvchining pertseptiv qobiliyatini tashkil etadi.

5. *Informatsion qobiliyat* - o'quv-tarbiya jarayonining boshi, ya'ni boshlanishi hisoblanib, o'qituvchining qanchalik axborot o'z bilish qobiliyati, uni atroflicha o'rganib, tahlil etib, o'quvchi va talabning yoshi, ongi, dunyoqarashiga mos ravishda etkazib bera olishida o'z ifodasini topadi. Bunda qaytar aloqa va uning samaradorligi o'qituvchining informatsion qobiliyati darajasini belgilaydi.

6. *Didaktiv qobiliyat* - o'quvchi va talabani bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, mustaqil fikri, mantiqiy va analitik tafakkuri asosida egallayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'rganib borishi, bu jarayonda egallayotgan bilimlar qay darajada ko'nikma va malakalarga aylanayotganligi muhimdir. O'qituvchning yana bir didaktiv qobiliyatiga uning dars jarayonini kuzata bilish va tahlil qila olishi kiradi. Didaktiv qobiliyatning yana bir o'ziga xos xususiyati o'qituvchining bilimdonligi, zehning o'tkirligi, ijodkorligida ko'rinadi. Didaktiv qobiliyat o'qituvchining informatsion qobiliyati asosida rivojlanib boradi.

7. *Yo'naltiruvchi qobiliyat* — motivlar va motivatsiya bilan bog'liq bo'lib, erkin fikr, qiziqish, havas, intilish va orzu bilan uyg'un holda bo'ladi.

8. *Safarbar etuvchi qobiliyat* — bugungi davr rivoji va talabidan kelib chiqib, o'qituvchini iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy va kasbiy-madaniy munosabatlarning naqadar dolzarbligi, echimini kutayotgan muammolarni hal etishning zarurligi, nazariy-metodologik bilimlarni amaliyot darajasiga olib chiqishning o'ta muhimpigini anglab etish bilan bog'liq ravishda hal etiladi.

9. *Rivojlantiruvchi qobiliyat* — ta'lim-tarbiya rivojining uygunligida amalga oshib, bunda o'qituvchi o'quvchini hissiy-irodaviy, didaktiv yo'naltiruvchi, safarbar etuvchi, yangilikka intiluvchanlik va ilmiy-ijodkorlik qobiliyatlarini aniq sistemada maqsadli ravishda rivojlantira olish qobiliyati bilan ifodalanadi.

10. *Kreativ qobiliyat* - bu o'qituvchining alohida o'ziga xos qobiliyati bo'lib, o'z ongida yangi tushunchalarni o'rganish, uni tahlil etishdan boshlanib, yangilikka intilish, o'z sohasi bo'yicha axborotlarni to'plash, uni alohida dastur holiga keltirib, ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq eta olish bilan belgilanadi.

11. *Gnostik (tadqiqotchilik) qobiliyat* - o'qituvchining izlanishga, ijodiy mehnatga, ilm-fanga qiziqishga, muammolar echimida maqsad va vazifalar qo'ya bilishga, ahamiyatiga qarab ilmiy-amaliy faktlarni to'shlay olishga, muayyan ilmiy faraz yechimini topishga, ilmiy tadqiqotchilik ishi bilan shug'ullanishga, ilm asosida bilim berish printsipli asosida faoliyat yuritishga undaydi.

**2. Ta`lim samaradorligini oshirishda sifat nazoratini tashkil etishda o'qituvchilarning vazifalari.** Uzluksiz ta`lim tizimida informatika fanini o'qitishda ta`lim samaradorligini oshirishda ta`lim mazmuni va sifati nazoratini olib borish muhim ahamiyatga ega. Bunda ta`lim muassasasi rahbariyati va pedagoglari quyidagilarni bilishi zarur:

- boshqaruv mexanizmini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etish;
- ta`limda sifat tushunchasi;
- ta`limda sifat nazoratini tashkil etish;
- ta`lim sifatini belgilovchi omillar;
- sifatni baholash mezonlari;
- sifat nazoratini olib boruvchilar (sifat komissiyasi);
- nazorat monitoringi va uning yuritilishi;
- yakuniy natijalarni baholash va qo'shimcha tadbirlar belgilash.

Ta`limda **sifat** - qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun amalga oshirilayotgan ishlarning nazorati va baholash bo'yicha olingan natijalarning monitoringi.

Qaysi ta`lim muassasisida boshqaruv mexanizmi ilmiy asosda to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa, ta`lim muassasasi rahbariyatining bosh vazifalaridan biri bo'lgan ta`lim mazmuni va sifat ko'rsatgichlarini oshirishga qaratilgan rejalari aniq maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lsa, shu ta`lim muassasasida ta`limning sifat nazoratini tashkil etish va uning monitoringini olib borish mexanizmlari ham ishlab chiqilishi lozim. Buning uchun ta`lim muassasasi rahbariyati ta`lim sifatini oshirishga qaratilgan asosiy vazifalarni ishlab chiqish va ushbu vazifalarning bajarilishi monitoringini olib boorish uchun sifat komissiyasi tuziladi.


Ta`lim sifatini belgilovchi omillardan kelib chiqqan holda ta`lim sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqadi va shu mezonlar asosida ta`lim sifatini baholab boradi, duch kelinayotgan muammolar bo`yicha qo`shimcha tadbirlar belgilaydi.

Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun birinchi navbatda ta`lim muassasasi rahbariyati va pedagogik jamoasi tomonidan ta`lim sifatini belgilovchi omillar aniqlab olinadi.

Ta`lim sifatini belgilovchi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- DTS, o`vuv reja, o`quv dasturlar;
- darslik, o`quv qo`llanmalar, uslubiy ko`rsatmalar, ularning electron ko`rinishlari, elektron darsliklar;
- o`qitishning texnik va multimedia vositalari;
- laboratoriya va multimedia jihozlari;
- fan bo`yicha nazariy darslar;
- fan bo`yicha didaktik materiallar;
- o`qituvchi-pedagoglar;
- o`quv va pedagogik amaliyoti va hokazo.

Ushbu omillarning bajarilishi yoki mavjud kamchiliklar va muammolarni bartaraf etish uchun ta`lim muassasasi rahbariyati tomonidan ta`limda sifat nazoratini olib boorish uchun ishchi guruhning mantiqiy tizimi ishlab chiqiladi (1-rasm).



1-rasm.

Ta`lim sifatini belgilovchi omillarning asosiyalaridan biri o`qituvchipedagoglardir. O`qituvchi-pedagoglarning ta`lim jarayonini sifatli tashkil etishdagi ijodkorligi, izlanuvchanligi, pedagogik mahoratlarini baholab borish va mehnatlariga yarasha moddiy va ma`naviy rag`batlantirib borish ta`lim mazmuni va sifat ko`rsatkichlarini oshirishning asosiy elementlaridan biridir.

Biz yashayotgan bugungi davr ta`lim va tarbiyada ilg`or pedagogik texnologiyalar elementlari hamda tajribalarini joriy etish natijasida ta`lim samaradorligini oshirish bilan xarakterlanadi. Bunda o`qituvchi-pedagoglar o`z bilimlarini oshirib, pedagogik texnologiya metodlarini o`zlashtirib olmoqdalar va ulardan o`z kasbiy faoliyatida foydalanmoqdalar. Bu borada o`qituvchi-pedagoglar oldida quyidagi vazifalar turadi:

- ta`lim maqsadini, vazifasini va mazmunini aniqlash;
- o`quv materialini ta`lim oluvchining intellektual salohiyatiga, yoshiga moslik darajasini va o`zlashtirish saviyasini loyihalash;
- turli xil murakkablik darajadagi nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish;
- ta`lim berish natijasi va uning samaradorligini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;
- darsda va darsdan tashqari vaqtlarda beriladigan mustaqil ta`lim uchun mustaqil ish topshiriqlarini rejalashtirish, ularning tizimi va mazmunini ishlab chiqish;
- o`rganiladigan fan bo`yicha ma`lumotlarni modulli bloklarga ajratish;
- o`qitishni takomillashtirishga ta`limning interfaol usullarini tanlash;
- muammoli va axborotli ta`lim elementlaridan foydalanish va hokazo.

Har bir o`qituvchi-pedagog dars mashg`ulotlarini olib borishda o`z faoliyatini tahlil qila olish va shu asosda tegishli xulosa chiqara olishga erishish kerak. Agarda o`qituvchi o`z mashg`ulotlarining samaradorligini baholay olmasa, u holda o`zi yo`l qo`ygan kamchiliklarni sezmaydi va bu faoliyatda ijodiy yondashuv ham bo`lmaydi.

### **Mustaqil ish topshiriqlari.**

1. Informatika fani o'qituvchisining pedagogik faoliyatiga qo'yiladigan talablar haqida internet tarmog'idan ma'lumotlar oling. Olingan ma'lumotlarni qiyoslab taqqoslang.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. Toshkent, "Talqin", 2005 y.

2. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003y.

3. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T., "Fan", 2006 y., 240 b.

4. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU, 2013 y.

5. Abdukarimov H., Suvonov O. Umumiy pedagogika: Texnologiya va amaliyot. O'quv-metodik qo'llanma. T., 2012 y., 120 b.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent 2008 y

## **2-ma'ruza. Innovatsion pedagogik faoliyat. Uzluksiz ta'lim tizimi informatika o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati**

### **Reja:**

1. Pedagogik innovatsiyalar maqsadi, mazmun-mohiyati va muhim belgilari.
2. Pedagogik innovatsiya imkoniyatlari, vazifalari va rivojlanish jarayoni bosqichlari.

**Tayanch iboralar:** *innovatsiya, pedagogik innovatsiya, pedagogik innovatsiyaning muhim belgilari, pedagogik innovatsiya imkoniyatlari, pedagogik innovatsiyaning rivojlanish jarayoni bosqichlari.*

**1. Pedagogik innovatsiyalar maqsadi, mazmun-mohiyati va muhim belgilari.** Mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlikka ularning jahon ta'lim talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq. Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlari va yuqori samaradorlik esa mazkur sohaga ijobiy yangilik kiritish bilan belgilanadi. Bunday yangilikni kiritish jarayoni innovatsion jarayon bo'lib, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilib, ta'limda sifat va samaradorlikka erishishdan iborat bo'ladi.

**Pedagogik innovatsiya** - bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallangan bilimlar asosida ta'limda sifatiy o'zgarishlar qilib, yuqori samaradorlikka erishishga yangicha yondashuv qilishdan iboratdir.

Bunday pedagogik innovatsiya deganda pedagogik tizimning maqsadi, mazmunmohiyati, belgilarini, imkoniyatlarini, vazifalarini, rivojlanish bosqichlari va tamoyillarining rivojlanish mexanizmlarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar hamda bu borada bo'lajak mutaxassislarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta'lim-tarbiya jarayonining sifat jihatlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishishni tushunish mumkin.

Endi yuqorida ifodalangan ta`lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan takomillashtirib, yuqori darajadagi samaradorlikka erishtiruvchi holatlar haqida qisqacha ma`lumotlar beramiz.

### **Pedagogik innovatsiyalar maqsadi, mazmun-mohiyati:**

**Maqsad:** Ta`lim-tarbiya tizimiga sezilarli samaralar beruvchi yangilik kiritish: yangi kontsepsiyalar Davlat Ta`lim Standarti, alternativ o`quv reja va dasturlari, o`qitishning axborotli texnologiyalarini joriy etishning davlat dasturlari, jahon "Internet" tarmog'iga chiqish va masofaviy ta`limni joriy etish bo'yicha davlat rejasi va dasturi, shuningdek hozirgi zamon talablari asosidagi yangi o`quv muassasalari va shu kabi yo`nalishlarni yanada jonlashtirish.

### **Mazmun-mohiyati:**

- o`quv materiallaridagi bayon qilinadigan ma`lumotlarni axborot ko`rinishiga keltirish va ularda uzviylik hamda izchillikni saqlab qolish;

- o`quv materiallarini o`zaro bog`liq bo`lgan modul bloklari shaklida ifodalashga erishish;

- o`quv materiallarini o`rganishga "Kompleks yondashuv" nomli tadqiqot usulidan foydalanishga erishish va undan muammoli hamda dasturiy ta`lim metodlaridan foydalanish;

- ta`lim-tarbiya jarayonida axborot muhitini yaratish borasida o`rganilayotgan sohaning axborotli ta`minotini yaratishga eritish;

- didaktik o`yin(shu jumladan kompyuterli o`yinlar va trenejlar) orqali turli voqea va hodisalardagi jarayonlar kechishini ifodalovchi masalalar (muammolar)ni echish;

- bu yo`nalishdagi ijodiy izlanishlarni olib borishda "Ta`lim-fan-amaliyot hamda nazariya bilan amaliyot uyg'unligiga e`tibor berish;

- innovatsion usullar qo`llangan holatdagi yutuq va kamchiliklarni baholab borishga erishish va kerakli joylarda tegishli tuzatishlar kirita olinishi lozim va shu kabilar.

### **Pedagogik innovatsiyaning muhim belgilari:**

- ta`lim-tarbiya jarayonini oldindan mavjud manbalarini hisobga olgan holda va fan-texnikaning eng so`ngi mavzuga(fanga) mos yutuqlarini e`tiborga olib, ta`lim jarayonini loyihalashtirish va uning natijalarini prognoz(bashorat) qila olish;

- ta`lim-tarbiya jarayoniga “tizimiy yondashuv” tadqiqot usulini qo`llashda, qaralayotgan tizimining elementlari va qism tizimlari orasidagi bog`lanishlarni e`tiborga olish va bular asosida talabalarning o`qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta`limtarbiya jarayoni rejasini tuzish;

- ta`lim-tarbiyada maqsad aniq bo`lishi, uning diagnostikasi(tashhisi) va pronози(bashorati) hamda talabaning o`zlashtirishi sifatini xolis baholash mezonini bo`lishi kerak;

- ta`lim tizimi tuzilishi, tarkibi, mazmuni bir butun yaxlit bo`lib, ularning o`zaro bog`liqligi, bir-birini bosqichma-bosqich to`ldirilib borilishi ta`minlangan bo`lishi kerak;

- ta`lim va tarbiyada olib boriladigan faoliyatning optimal variantlarini ta`minlay olish lozim;

- ta`lim-tarbiya jarayonining texnik va informatsion ta`minoti etarli bo`lishi lozim;

- yaratilgan pedagogik innovatsiya(PI)ni talabalarning ilmiy-uslubiy salohiyatini hisobga olgan holda o`qitish;

- ta`lim sifatiga e`tibor bergan holda shakllantiruvchi va yakuniy nazoratlar olish;

- rejalashtirilgan joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni o`tkazish va uning chuqur tahliliga erishish orqali talabalar o`zlashtirish monitoringi ko`rsatkichini doimo e`lon qilib borish;

- ta`lim-tarbiya samaradorligini aniqlash mezonini bo`yicha yakuniy nazorat va amaliyotga joriy etish bo`yicha uslubiy tavsiyalar berish.

## **2. Pedagogik innovatsiya imkoniyatlari, vazifalari va rivojlanish jarayoni bosqichlari.**

### **Pedagogik innovatsiya (PI) imkoniyatlari:**

- “Fan - ta`lim - amaliyot” uzviyligini ta`minlaydi;

- PI ning maqsadi, mazmun-mohiyati, muhim belgilari, ularning uslubiy va axborotli ta`minotlari hamda imkoniyatlari bo`yicha batafsil ma`lumot berishga asoslar etarli bo`ladi;

- PI dan foydalanishda o`rganiladigan manba(mavzu, fan, tarbiya yo`nalishlari va hakoza)ga qarab uni takomillashtirish yoki keraksiz qismlarini e`tiborga olmaslik mumkin;

- PI dan foydalanishda ozgina o`zgartirishlar kiritish orqali o`xshash manbalarni o`rganish hamda foydalanish mumkin va shu kabilar.

### **Pedagogik innovatsiyaning vazifalari:**

- talabani “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” talablari asosidagi zamonaviy raqobatbardosh mutaxassis darajasiga etkazishda zamonaviy ko`makchi bo`lish;

- o`qituvchi malakasini oshirish, talaba kasbiy fazilatlarini takomillashtirish yo`llarini ishlab chiqishdagi ijobiy ishlarini rivojlantirishga erishish;

- reyting, test usullaridan ta`lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish;

- ilg`or pedagogik texnologiyalarni tahlil qilish, saralash va joriy etishga erishish hamda pedagogik samaralarini aniqlash;

- ta`lim dasturlarining invariantlarini, modifikatsiyalarini yaratish, ayniqsa elektron darsliklar hamda o`quv qo`llanmalari yaratishga erishish va ularni amaliyotga joriy etish;

- ta`lim-tarbiya jarayonining yangi axborotli va pedagogik texnologiyalarini qo`llash va unda sifat ko`rsatkichlari hamda samaradorlikni baholab borish;

- o`z mustaqil fikrini bayon qilishga sharoit yaratish va ularda tanqidiy fikrni bayon qilish imkoniyatlarini yaratish;

- “Ustoz- shogird” tizimidagi erkinliklarni rivojlantirish va shu kabilar.

### **Pedagogik innovatsiyaning rivojlanish jarayoni bosqichlari:**

- ta`lim-tarbiyani yanada rivojlantirish va takomillashtirishning zarurligini tushunishning paydo bo`lishi va o`zida paydo bo`lgan g`oyalar asosida ta`limtarbiyadagimuammo echimini rivojlantirish va loyihalashtirish hamda tajriba-sinov ishlari modellarini yaratishga kirishish;

- shakllana boshlagan g'oyalar va ular asosidagi loyihalash-rivojlantirish ishlarini qo'yilgan maqsadlar bo'yicha aniq modellashtirish, yangicha tafakkur va tajriba rejaları qabul qilinib, qo'llab-quvvatlanadi, natijada aniq yangi g'oya paydo bo'lib, uning rivojlanishi uchun muhit va sinov-tajriba maydonchalaridagi ishlar natijalari bo'yicha axborot muhiti yaratiladi va joriy etish ko'lami aniqlanadi;

- qo'llanishi kerak bo'lgan pedagogik innovatsiyaning me'yoriy hujjatlari tayyorlanadi va DTS talablariga tegishli tuzatishlar kiritiladi, keng joriy etishga tavsiyalar beriladi va shu kabilar.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Pedagogik innovatsiyalar maqsadi, mazmun-mohiyati va muhim belgilari haqida Sizning mulohazalaringiz?

2. Pedagogik innovatsiya imkoniyatlari, vazifalari va rivojlanish jarayoni bosqichlari haqida Sizning fikringiz va mulohazalaringiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. Toshkent, "Talqin", 2005 y.

2. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003y.

3. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., "Moliya", 2003y., 172 b.

4. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T., "Fan", 2006 y., 240 b.

5. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU, 2013 y.

6. Abdulkarimov H., Suvonov O. Umumiy pedagogika: Texnologiya va amaliyot. O'quv-metodik qo'llanma. T., 2012 y., 120 b.

**3-ma'ruza. Informatika o'qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish vositalari: innovatsion o'quv-biluv faoliyati, maxsus kurslar, malakaviy amaliyot**

**Reja:**

1. Pedagogik innovatsiya tamoyillari va uni rivojlantirish mexanizmlari.
2. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda bo'lajak o'qituvchilarda shakllanadigan innovatsion xislatlar.

**Tayanch iboralar:** *innovatsiya, pedagogik innovatsiya, pedagogik innovatsiyalarni hayotga tadbiq etishning tashkiliy asoslari, pedagogik innovatsiyadan foydalanishga uslubiy tavsiyalar, pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda bo'lajak o'qituvchilarda shakllanadigan innovatsion xislatlar.*

**1. Pedagogik innovatsiya quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

- ta'lim-tarbiyaning yagona tizimdan iborat ekanligi, undagi uzluksiz ta'lim tizimi va tarkibining yaxlitligi, birligi hamda bir-biri bilan uzviy bog'langanligi;
- ta'lim-tarbiya jarayonini olib borishda optimal variantlarni topishga erishish;
- zamonaviylik, ya'ni ta'lim-tarbiya uslubiyatini zamonaviy fan-texnika yutuqlari bilan boyitib borish;
- ilmiylik, ya'ni ta'lim-tarbiya tizimini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadida uzluksiz ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish;
- moddiy-texnika bazani zamon talabi asosida yaratish, pedagogik jarayonda axborotlashtirish muhitiga e'tibor berish;
- axborot texnologiyalari va texnikalaridan foydalanish samaradorligini oshiruvchi elektron darslik va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqish, shuningdek masofaviy ta'lim va "Internet" dan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- talabalar bilimni baholashni avtomatlashtirish hamda bilim monitoringini muntazam ravishda nazorat qilib borish va shu kabilar.

**Pedagogik innovatsiyani rivojlantirish mexanizmlari:**

- ta`lim muassasasida ijodiy muhit yaratish, bu boradagi tadbirkorlik va tashabbuskorlikni qo`llab-quvvatlash;

- ta`lim innovatsiyalari bo`yicha olib borilayotgan izlanishlarga shart-sharoitlar yaratish va ularning ommaviy tatbig`iga ko`maklashish;

- ilmiy – izlanuvchanlikni rag`batlantirish, tanlovlar o`tkazish hamda ularni iqtisodiy jihatdan qo`llab-quvvatlash;

- istiqbolli ishlanmalarni, samarali ta`lim uslublari, shakllari, yo`llarini uzluksiz ta`lim tizimiga kiritishga ko`maklashish, yangiliklarni muvofiqlashtirish, to`plash va shu kabilar.

### **Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tadbqiq etishning tashkiliy asoslari:**

- pedagogik innovatsiyalarni yig`ishda innovatsiyalar bo`yicha aniq ma`lumotlar bazasini tashkil qilish va ta`lim-tarbiya sohasining me`yoriy hujjatlari bo`yicha ma`lumotlar omborini yaratiladi;

- pedagogik innovatsiyani tanlashda quyidagtlarga e`tibor beriladi: pedagogik innovatsiyaning pedagogik samaradorligini muntazam ravishda o`rganib, tahlil qilib borish;

- pedagogik innovatsiya bo`yicha tajriba-sinov ishlarini tahlil qilib borish, umumlashtirish. Ommalashtirishlar bo`yicha tavsiyalar tayyorlash;

- pedagogik innovatsiyani joriy qilishda uni joriy etish jarayonini muntazam ravishda kuzatib borish, pedagogik innovatsiyaning rivojlanish mexanizmlariga alohida e`tibor berish va shu kabilar.

### **Pedagogik innovatsiyadan foydalanishga uslubiy tavsiyalar:**

- ta`lim-tarbiya sohasidagi davlat me`yoriy hujjatlariga e`tibor berish;

- pedagogik innovatsiya sohasidagi ma`lumotlarni to`plash, saqlash, qayta ishlash va uzatishga tayyorlash orqali axborot holiga keltirish;

- pedagogik innovatsiyaning joriy etilishi bo`yicha axborot tizimini yaratish;

- pedagogik innovatsiya bo`yicha kompyuter tarmog`ida saytlar ochish va undan foydalanish ko`lamini kengaytirish va h.k.

**Pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda bo`lajak o`qituvchilarda shakllanadigan innovatsion xislatlar:**

- talabaning ijodkorligi xislati, bunga talaba o'zining intellektual qobiliyati hamda muntazam ravishda o'z ustida ishlashi orqali erishadi;
- talabaning kompyuter savodxonligi va axborot madaniyati yuksakligi xislati;
- talabaning yangilikni joriy etishdagi faoliyatni oxirigacha yetkaza olish xislati;
- talabaning innovatsion faoliyatda ilg'or bo'lish xislati;
- talaba shaxsining g'ayrat-shijoatlik xislati;
- yetakchi kasbiy pedagogik mahoratga ega bo'la olishlik mahorati.

Bu qayd etilgan pedagogik innovatsiyani ishlab chiqish joriy etishning zaruriy ketma-ketligini amalga oshirish orqali ta'lim tizimida sezilarli sifat o'zgarishlariga va yuqori samaradorlikka erishiladi. Albatta bu zaruriy ketma-ketlikni amalga oshirish borasida keng miqyosda katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi mumkin.

Ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish va qo'llash yaqin o'ttiz yillik tarixga ega. Bu davrda rivojlangan xorijiy davlatlarda yangi pedagogik texnologiyalar, yangi axborot texnologiyalari ishlab chiqildi. Bu borada respublikamizda ham sezilarli ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ham yuqorida qayd etilgan pedagogik innovatsiyalarni ishlab chiqish joriy etishning zaruriy ketma-ketligi bo'yicha diqqatga sazovor ishlar qilinmoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida "Innovatsion uslublarni yaratish va joriy etish markazi" tashkil etilgan.

Uning tarkibida quyidagi bo'limlar mavjud:

- innovatsion uslublar ishlab chiqish, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni va ijodkor o'qituvchilar ish tajribalarini o'rganish, ularni to'plash va ommalashtirish bo'limi;
- iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi;
- pedagogik innovatsiyalar asosidagi o'quv-uslubiy qo'llanmalarni tayyorlash va nashr qildirish bo'limi va shu kabilar.

Demak, pedagogik innovatsiyalar keng qamrovli, ko'p qirrali, murakkab va ijodiy tashkiliy-pedagogik faoliyat bo'lib, uning yordamida ta'lim-tarbiya jarayonining istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish mumkin hamda "Kadrlar

tayyorlash milliy dasturi” da qayd etilgan raqobatbardosh zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashni kafolatlaydi.

### **Mustaqil ish topshiriqlari.**

1. Informatika o’qituvchisini innovatsion faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish vositalari haqida Sizing fikringiz?

2. Pedagogik innovatsiyalarni joriy etishda Sizda qanday xislatlar shakllanishi mumkinligini hohlaysiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o’qitish metodikasi. Toshkent, “Talqin”, 2005 y.

2. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003y.

3. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., “Moliya”, 2003y., 172 b.

4. To’raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T., “Fan”, 2006 y., 240 b.

5. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o’qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg’ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU, 2013 y.

#### **4-ma'ruza. Informatika ta'limi jarayonida innovatsion pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodikasi. Informatika ta'limida an'anaviy va noan'anaviy ta'lim texnologiyalari**

##### **Reja:**

##### **1. An'anaviy ta'lim texnologiyalari.**

##### **2. Noan'anaviy ta'lim texnologiyalari.**

*Tayanch iboralar: an'anaviy dars, o'qitishning noan'anaviy modeli, modellashtirish, hamkorlikda o'rganish modeli, o'rganishning tadqiqot modeli.*

**1. An'anaviy ta'lim texnologiyalari.** Ko'p yillar o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish ta'limning samarali modellaridan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy dars – muayyan muddatga mo'ljallangan. Ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O'quv materialini yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars – ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan – bir metodi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois, ba'zida an'anaviy darsni markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham atashadi.

Markazda o'qituvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:

- o'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- ilgari egallangan bilimlarni ham inobatga olish;
- o'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- o'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab – quvvatlash;
- amaliyot orqali o'rganish;
- ikki tomonlama fikr – mulohazalar bilan ta'minlash;
- o'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- o'qituvchi – o'quvchilar uchun o'quv jarayonini engillashtiruvchi shaxs;

- o'quv jarayonini baholash.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol – javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sabab, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'tarilishiga olib kelar ekan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik – kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, kichik guruhlarda ishlash, interfaol metodlarni qo'llash, turli qiziqtiruvchi misollarning keltirilishi, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, turli baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan joyida va vaqtda foydalanish talab etiladi.

An'anaviy dars o'tishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagi bosqichlardan iboratdir.

#### 1. Kirish bosqichi:

- o'tgan o'quv materialini takrorlash;
- dars maqsadini tushuntirish, - dars mazmuni va rejasi bilan tanishtirish.

#### 2. Yangi mavzuni yoritish:

- yangi mavzuni kichik – kichik bo'lakchalarga bo'lib berish;
- turli misollarni inkoni boricha ko'rgazmali taqdim qilish;
- mavzudan chetlashmaslik;
- o'quv materialining murakkab tomonlarini qayta tushuntirish;
- o'quvchilarning tushunganlik darajasini tekshirib borish;
- teskari aloqani ta'minlash.

3. Materialni mustahkamlash uchun mashq. Biror topshiriq(masala) echimini o'quvchilar bilan to'liq tahlil qilish.

4. Yo'naltirib turiluvchi mashq. O'quvchilar topshiriq(masala)ni mustaqil bajarishadi, o'qituvchi esa ularni nazorat qilib, tuzatish kiritib boradi.

5. Mustaqil bajariladigan mashq. O`quvchilar mashqni mustaqil holda o`qituvchi yordamisiz bajarishadi.

6. O`quvchilarning tushunganlik darajasini tekshirish.

7. Yakunlash.

An`anaviy(ta`lim jarayoni markazida o`qituvchi bo`lgan) o`qitish metodlari quyidagi afzalliklarga va kamchiliklarga ega.

Afzalliklari:

- ma`lum ko`nikmalarga ega bo`lgan va aniq ma`lam tushunchalarni, fanni o`rganishda foydali;

- o`qituvchi tomonidan o`qitish jarayonini va o`qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi;

- vaqtdan unumli foydalanish;

- aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

Kamchiliklari:

- o`quvchilar passiy ishtirokchi bo`lib qoladilar;

- o`qituvchining to`la nazorati barcha o`quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi;

- o`quvchilar o`qituvchi bilan bevosita muloqotga kirisha olmaydi;

- eslab qolish darajasi hamma o`quvchilarda bir xil bo`lmaganligi sababli, guruh bo`yicha o`zlashtirish darajasi past bo`lib qolishi mumkin;

- mustaqil o`rganish va echimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

**2. Noan`anaviy ta`lim texnologiyalari.** Hozirgi vaqtda ta`lim muassasalarida o`qitishning zamonaviy shakl va usullari keng qo`llanilmoqda. O`qitishning zamonaviy usullarini qo`llash ta`limda yuqori samaradorlikka olib keladi. An`anaviy o`qitishda asosan o`qituvchiga erkinlik beriladi (sub`ekt-ob`ekt), noan`anaviy o`qitishda esa o`qituvchiga erkinlik beriladi, o`qituvchi-o`quvchi munosabatlarini demokratlashtirish (sub`ekt-ob`ekt) asosida dars jarayonlari tashkil etiladi.

O`qitishning noan`anaviy usullaridan samarali foydalanish o`qituvchining kasbiy malakasi hamda mahoratiga bog`liq.

Noan`anaviy o`qitish jarayonida o`qitishning tashkiliy shakllari(frontal, guruhlarda ishlash, individual ishlash) yordamida o`qituvchi dars o`tishda quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

*Aqliy hujum.* Bu usulda o`qituvchi o`quvchilarga topshiriq (savol) beradi, o`quvchilarning topshiriqlar borasida berilgan fikr-mulohazalari jamlanadi.

O`quvchilar hamkorlikda murakkab muommoni echishga harakat qiladilar. Uni hal etish uchun o`z shaxsiy g`oyalarini ilgari suradilar.

*Guruh (juft) bo`lib ishlash.* Darsda ishtirok etayotgan o`quvchilar guruhlarga (4 - 6 o`quvchi) bo`linib yoki juft - juft bo`lib o`qituvchi bergan topshiriqlarni bajaradi.

*Bahs.* O`quv guruhi ikki komandaga bo`linadi. Tegishli mavzu bo`yicha bahs, munozara yuritiladi, o`zaro fikr almashiniladi.

*Mehmon mashqlari.* Bunda dars biron mutaxassis ishtirokida o`tkaziladi. Mutaxassis taklif etish, kutib olish, dars jarayonini tashkil etib, uni kuzatib qo`yish kabi barcha tashkiliy ishlarni o`quvchilarning o`zlari bajaradilar.

*So`rovnoma o`tkazish.* Fanni o`qitish davomida har bir bo`lim, bob yakunlanganidan so`ng o`qituvchi so`rovnoma o`tkazadi.

*Og`zaki va yozma mashqlar.* Og`zaki mashqlar ta`lim oluvchilarning nutq madaniyati va mantiqiy fikrlashini, ularning bilish imkoniyatlarini rivojlantiradi. Yozma mashqlar orqali esa o`quvchilarda tegishli ko`nikma va malakalar shakillantiriladi, chuqurlashtiriladi va mustahkamlanadi *O`z-o`zini attestatsiya qilish.* Har bir ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi o`z faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan usuldir.

*Natijalarni tahlil qilish.* Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarga qo`ygan baholar natijasi va dars-mashg`ulotda qo`yilgan maqsadga qay darajada erishganlik tahlil etiladi.

*Video materiallardan foydalanish.* Dars jarayonida multimedia tizimidan, videoyozuvlardan, o`quv televideniesi, axborotni displeyda aks ettiruvchi kompterlardan foydalanish.

*Tadqiqot.* Ta`lim oluvchilarning ayrim tadqiqot ishlarini, ya`ni diplom va kurs loyihalari, bitiruv ishlarini ilmiy asoslangan holda mustaqil bajarishlari, ularni yozish va qo'yilgan maqsad va natijalarni tahlil qilishi.

*Improvizatsiya.* Dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning nostandart vaziyatlarni mustaqil hal eta olishlari.

*Kuzatish va ma`lumotlarni etkazish.* Ta`lim oluvchilarning bir-birlarini kuzatishlari va qo'yilgan muammo bo'yicha ma`lumotlarni etkazishi.

*O'yinlar.* Ishbilarmonlik yoki sahnalashtirilgan o'yinlar –muammoli vazifaning bir turi. Bunda matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan rollar o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi.

*Loyihalash ishlari.* Bu bilim va malakalarni tahlil qilish va baholashni nazarda tutuvchi majmuaviy ta`lim usulidir. Loyiha usulida o'quvchilar rejalashtirishda, tashkil etishda, tekshirishda, tahlil etishda va bajarilgan ishning natijalarini baholashda ko'proq ishtirok etadilar.

*Kitob bilan ishlash.* Ushbu usul ta`lim oluvchilarning o'quv materialini mustaqil o'zlashtirishi, o'z-o'zini tekshirish malakasini oshirishi, berilgan matnning mazmunini to'liq va ongli ravishda bayon eta bilishi bilan bog'liq.

*Individual - amaliy usul.* Ta`lim oluvchilar olgan bilimlari asosida amaliy vazifalarni hal qiladilar, ya`ni nazariy bilimlarini amaliyotga tadbiiq etadilar.

*Ko'rgazmali materiallar (diagramma, karta, fotografiya, san`at asarlari, plakatlar) bilan ishlash.* Ta`lim oluvchilar mustaqil holda ko'rgazmali materiallar bilan ishlashadi. Ularning o'zlari ham ko'rgazmali materiallarni tayyorlaydi.

*Suhbat.* Bu o'qitish va o'qishning muloqot, savol-javob usulidir. Suhbat individual holda yoki butun guruh bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

*Vaziyatlarni o'rganish.* Ta`lim muassasalarida vujudga keladigan standart vaziyatlar o'rganiladi va ularni hal etish yo'llari ishlab chiqiladi.

*Boshqalarni o'qitish.* Bu usulda ta`lim oluvchilar qo'yilgan muammo bo'yicha bir-birlari bilan o'zaro axborot va ma`lumot almashadilar.

*Baholash.* Bunda ta`lim oluvchilar maqsadga qay darajada erishganini aniqlaydilar. Ta`lim oluvchilar ta`lim beruvchi orqali yoki o'zaro bir-birlarini baholashadi. Baholashning quyidagi turlari mavjud: tekshiruv, savol-javob, har xil savollarni tanlash, to'g'ri va noto'g'ri shakldagi javoblar, o'z-o'zini baholash, tengdoshining baholashi, ustozlarning fikrlari, harakatlar rejasi, har xil tavsiyalar, reyting, tadqiqot, intervyu, testlar, videokamera yoki inson kuzatishi, mikrotopshiriqlar, loyihalar orqali baholash va h. k.

Yuqorida sanab o'tilgan noan'anaviy o'qitish usullari shubhasiz, ta`lim muassasalarida ta`lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O'qitishning no'anaviy modellarini shartli ravishda uchta turga ajratish mumkin:

- modellashtirish;
- hamkorlikda o'rganish modeli;
- o'rganishning tadqiqot modeli.

Bu modellar asosan o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, ularni boshqacha tarzda markazda o'quvchi turgan ta`lim modellari deb ham atashadi.

**Modellashtirish** - real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini(modelini) auditoriya(sinfxonada) yaratish va ularda o'quvchilarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta`lim olishini ko'zda tutuvchi metod.

**Hamkorlikda o'rganish modeli** – o'quvchilarning mustaqil huruhlarda ishlashi evaziga ta`lim olishini ko'zda tutuvchi metod.

**O'rganishning tadqiqot modeli** – o'quvchilarni muayyan muammoni echishga yo'naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko'zda tutuvchi metod.

Noan'anaviy(ta`lim jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) o'qitish metodlari quyidagi afzalliklarga va kamchiliklarga ega.

Afzalliklari:

- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi;
- o'z aloqalarning ta`minlanishi;
- o'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi;

- motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi;
- o'tilgan o'quv materialining yaxshi eslab qolinishi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi;
- o'z – o'zini baholashning o'sishi;
- o'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati;

- mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berishi;
- muammolarni hal etish ko'nikmalarining shakllanishi.

#### **Kamchiliklari:**

- ko'p vaqt talab etilishi;
- o'quvchilarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi;

- juda murakkab mazmundagi o'quv materiali o'rganilayotganda ham o'qituvchi

rolining past bo'lishi;

- “kuchsiz” o'quvchilar bo'lganligi sababli “kuchlm” o'quvchilarning ham past baho olishi;

- o'qituvchining o'zi ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolarni hal etish ko'nikmalariga ega bo'lishining talab etilishi.

#### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. An'anaviy va noan'anaviy dars turlarining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilish holatlarini o'rganing va tahlil qiling.

2. An'anaviy va noan'anaviy dars turlarining o'rta maxsus kasb – hunar ta'limi muassasalarida o'qitilish holatlarini o'rganing va tahlil qiling.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. Toshkent, “Talqin”, 2005 y.

2. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003y.

3. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T., "Fan", 2006 y., 240 b.

4. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU, 2013 y.

5. Abdukarimov H., Suvonov O. Umumiy pedagogika: Texnologiya va amaliyot. O`quv-metodik qo'llanma. T., 2012 y., 120 b.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar (ta`lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent 2008 y., 181 b.

**5-ma'ruza. Ta'lim tizimida informatika fanlarining maqsadi, mazmuni, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan innovasiyalar. Informatika fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar**

**Reja:**

**1. O'quvchilar o'quv - biluv faoliyatini faollashtirishda o'qitishning qiziqtiruvchi metodlari.**

**2. O'qitishning interfaol metodlari.**

*Tayanch iboralar. O'qitishning qiziqtiruvchi metodlari, o'qitishning interfaol metodlari, "Aqliy hujum" metodi, Klasterlar metodi, Venn diagrammasi, T-sxema metodi, FSMU texnologiyasi, "Zinama-zina" texnologiyasi.*

**1. O'quvchilar o'quv - biluv faoliyatini faollashtirishda o'qitishning qiziqtiruvchi metodlari.** Bugungi kun talabi ta'limni sifat o'zgarishlariga olib keluvchi yangicha yondashuvlarni izlashga undamoqda va uni o'rganishdagi yondashuvlar (metodlar) ham o'zgarmoqda.

Ta'limda yangi bilimlarni amalda qo'llash natijasi innovatsiyalarga asoslangan yangi ta'lim yaratilishiga olib kelmoqda.

Respublikamizda ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirish kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash va isloh qilish davlat ahamiyatidagi eng ustivor vazifalar qatoriga kiradi.

O'quvchi o'zlashtirgan bilimni amaliyotda qo'llay bilishi uchun uni o'z vaqtida mustahkamlashi, boshqa tushunchalarni o'rganishda qo'llash bilishi va olingan bilimlarni tizimlashtirish ta'lim samaradorligini ta'minlashga olib keladi.

**O'quvchining bilish faoliyati deganda:**

- o'rganilayotgan mavzuga doir barcha axborotlarni to'plash;
- to'plangan axborotlarni qayta ishlash;
- o'rganilgan axborotlarni (ma'lumotlarni) qo'llash kabi uchta bosqichdan iborat faoliyat tushuniladi.

*O`quvchilar o`quv - biluv faoliyatini faollashtirishda o`qitishning qiziqtiruvchi metodlari:*

Informatika o`quv predmetining asosiy vazifasi o`quvchilarni zamonaviy informatikaning ba`zi bir umumiy g`oyalari bilan tanishtirish, informatikaning amaliyotdagi tadbig`ini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi rolini ochib berishdan iborat.

Didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda, o`quvchilarga nafaqat faktlarning qat`iy ilmiy bayonini berish, balki o`qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo`llash lozim. Masalan, ko`pchilikka ma`lum va ommabob bo`lgan krossvord o`yini o`quvchilarda qiziqish o`yg`otishi tabiiydir. Qomusiy lug`atda ta`riflanishicha, uning atamasi inglizcha “kross” – kesishgan, “vord” – so`z degan ma`noni anglatib, ilk bor XX asr boshlarida kashf etilgan. Vaqt o`tishi bilan uning turlari ko`payib, chaynvord, chaynkrossvord, krosschaynvord, aylanma krossvord, diagonal krossvordlar o`ylab topildi. Ularning har biri shaklda so`zlarning joylashishi va bog`lanishi bilan farq qiladi.

Krossvord ko`rinishidagi so`rov shakli o`quvchilar uchun har doim qiziqarli va o`ziga tortadigan metoddir. Mustaqil ijodiy faoliyatning bunday shaklidan foydalanilganda darsda faqatgina kuchli o`quvchilargina emas, balki kuchsiz o`quvchilar ham faol ishtirok etadilar.

Darslarda qiziqtirishdan foydalanishning boshqa shakllaridan, ya`ni rebus va boshqotirmalardan ham foydalanish yaxshi samara beradi.

Ushbu qiziqtiruvchi metodlardan foydalanganda, o`qituvchi darsni maqsadli tashkil qilishni rejalashtiradi, ya`ni krossvord, rebus, boshqotirmalarni fanning mazmuniga mos tayyorlaydi. Darsning maqsadini aniqlaydi va kutilayotgan natijani loyihalaydi.

## **2. O`qitishning interfaol metodlari.**

**Interfaol** so`zi inglizcha **Interakt** so`ziga mos kelib, **Inter** – o`zaro, **akt** – ish ko`rmoq, ishlamoq degan ma`nolarni anglatadi.

Interfaol o`qitish – muloqotli o`qitish bo`lib, jarayonning borishida o`qituvchi va o`quvchi orasida o`zaro ta`sir amalga oshiriladi. Interfaol o`qitishning mohiyati

o'quv jarayonini shunday tashkil etishdan iboratki, unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Darslardagi interfaol faoliyat o'zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyati nazorat topshiriqlarini birgalikda echishga olib keladigan muloqotli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Interfaol metodlardan foydalaniladigan o'quv jarayonida o'quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarini va tegishli axborotni tahlil qilish asosida murakkab muammolarni echishga, alternativ fikrlarni chamalab ko'rishga va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, bahslarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o'rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhli ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli o'yinlar, ijodiy ishlar qo'llaniladi, hujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi.

Interfaol o'qitish tashkilotchilari uchun, sof o'quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

- guruhdagi o'quvchilarning o'zaro muloqotlar jarayonida boshqalarning qadriyatlarini tushunib etishi;
- boshqalar bilan o'zaro muloqotda bo'lish va ularning yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;
- o'quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.

Interfaol usullar bo'yicha o'qitish tashkil etish jarayonida o'qituvchining bergan topshiriqlari mazmuni o'quvchining tafakkurini rivojlantirish uchun kuchli vositadir.

Ushbu topshiriqlar turli xil murakkablik darajalarida bo'lib, o'quvchilarni fikr yuritish, o'ylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab tahlil etishga undovchi bo'lishi lozim.

Quyida topshiriq savollarini to'g'ri ifoda qilish uchun tavsiyalar keltiramiz:

1. Topshiriq savollarini aniq va tushunarli darajada qo'yish lozim.
2. Topshiriq mavzu bilan bevosita bog'liq bo'lishi kerak.

3. Muayyan predmetlardan umumiyga borishga harakat qiling. Bu holat o'quvchilarni o'ylashi va savolga javob berishda engillik tug'diradi.

4. Faqatgina "ha" yoki "yo'q", "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" degan javoblar beriladigan savollarni berishdan saqlaning.

5. O'quvchilarga o'z intellektual qobiliyatlariga tayangan holda javob beradigan savollarni bering.

6. O'quvchining o'z nuqtai nazarini bildiradigan topshiriqlardan berishga harakat qiling.

7. Qo'yilgan topshiriqqa javob berilganda o'quvchilardan "Nima uchun shunday deb o'ylaysiz?" deb so'rab turing.

Quyida bir qator interfaol metodikalarning tavsifi va mohiyatini keltiramiz:

### ***"Aqliy hujum" metodi.***

"Aqliy hujum" – jamoa bo'lib muhokama qilishning samarali metodidir. Unda biror muammoning echimini topish barcha ishtirokchilarning fikrini erkin ifodalash orqali amalga oshiriladi.

Ushbu metod tamoyillari bo'yicha o'qituvchi o'quvchilar oldiga masalani qo'yadi va ushbu topshiriqni echish bo'yicha o'zlarining fikrlarini bayon qilishni so'raydi. Ushbu bosqichda hech kimning boshqa ishtirokchilarning g'oyalari haqida o'z fikrini bildirishga yoki unga baho berishga haqqi yo'q.

"Aqliy hujum"ning qoidalari quyidagilardan iborat:

- taklif etilayotgan g'oyalar baholanmaydi va tanqid qilinmaydi;
- ish g'oyalar sonini ko'paytirishga qaratilgan, g'oyalar qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi;
- har qandy g'oyani kengaytirishga, rivojlantirishga harakat qilish mumkin;
- har bir g'oya yozib boriladi;
- aqliy hujum o'tkazish vaqti qat'iy o'rnatiladi va unga rioya qilinadi.

"Aqliy hujum" tugagandan so'ng takliflar tahlil qilinadi va ulardan eng qimmatlilari keyinchalik ular bilan ishlash uchun tanlab olinadi.

### ***Klasterlar metodi.***

Klasterlarga ajratish – o'quvchilarga biror mavzu bo'yicha erkin va ochiq fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir.

Bu metod biror mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Klasterlarga ajratish metodini qo'llash quyidagicha amalga oshiriladi:

- tarqatma materialda mavzuga oid ochiq so'z yoziladi;
- o'quvchilar ushbu so'z bilan bog'liq xayollariga kelgan so'z va jummalarni uning atrofiga yoza boshlaydilar;
- so'zlarni yozish jarayoni o'qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so'z va qoidalar tugaguncha davom etadi.


Klasterga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur. Ular quyidagilardan iborat:

1. Xayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e'tibor bermasdan yozib borish.
2. Orfografiya va boshqa omillarga e'tibor bermaslik.
3. Vaqt tugaguncha ko'proq bog'lanishlar hosil qilishga harakat qilish.
4. G'oyalar va so'zlar sonini cheklab qo'yimaslik.

### ***Venn diagrammasi.***

Ushbu metod ikki yoki undan ortiq katta o'lchamdagi o'zaro kesishuvchi aylanalar asosida tuziladi. Aylanalar kesishganda orasida yozuv uchun etarli joy qolishi kerak.

Bu diagramma asosan g'oyalarni kontrastlash (bir-biridan ajratish) uchun qo'llaniladi va taqqoslanayotgan ob'ektlarga xos umumiy va individual xususiyatlarni ko'rsatib beradi.



***T- sxema metodi.***

T- sxema metodida bahs davomida javoblarni (ha yoki yo'q, tarafdor yoki qarshi kabi) yozib borishda universal grafik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning mavzu doirasi aniqlangandan so'ng, quyidagi ko'rinishdagi T-sxemani tuzish kerak:

Tarafdor	Muammo	Qarshi

Besh minutdan so'ng sxemaning chap tomonini to'ldirish lozim. Unda besh minut davomida o'quvchilar mavzuga oid nechta kategoriya o'ylab topishgan bo'lsa, shuncha kategoriya ko'rsatiladi. Keyingi besh minutda o'quvchilar sxemaning o'ng tomonini to'ldiradilar. Va nihoyat, yana besh minut mobaynida o'quvchilar o'zlarining Tsxemalarini boshqa juftlik yoki kichik guruhning T-sxemasi bilan taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar.

**FSMU texnologiyasi.**

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida (o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlari hamda mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin.

Bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchilar tomonidan o'quv

jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Ushbu texnologiya asosida mashg'ulotni o'tkazish tartibi quyidagicha bo'ladi:

A) O'qituvchi har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni tshldirishni taklif qiladi.

Bu erda:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

B) Yakka tartibdagi ish tugagach, o'quvchilar kichik guruhlariga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan kata formatdagi qog'oz varaqlarini tarqatadi.

D) Kichik guruhlariga har bir o'quvchi yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi.

E) O'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi.

F) Mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

### ***“Zinama-zina” texnologiyasi.***

Bu texnologiya o'quvchilar bilan yakka holda yoki guruhlariga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi. Ushbu texnologiya barcha dars mashg'ulotlarida qo'llanilishi mumkin.

Ushbu texnologiyalarga asoslangan mashg'ulot quyidagi tartibda o'tkaziladi:

1. Kichik guruh a'zolari mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi, ularga qog'ozning chap qismida kichik mavzu (yoki turli

murakkablik darajadagi topshiriqlarning biror turi) yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi.

2. O'qituvchi kichik guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoasi bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.

3. Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan biri taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material auditoriya doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi.

4. O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

O'quv mashg'ulotining bunday tashkil etilishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashi, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o'rgatadi.

Tarqatma material quyidagi shaklga ega:

№	Mavzu Kichik mavzular	1-murakkablik darajasidagi topshiriqlar (yoki boshqa darajadagi topshiriqlar)
1	1-topshiriq	
2	2-topshiriq	
3	3-topshiriq	
4	4-topshiriq	

### **Mustaqil ish topshiriqlari.**

1. Informatika fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilar o'quv biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar haqida Sizning fikringiz va xuloaslaringiz?

2. O'qitishning qiziqtiruvchi metodlari asosida o'zingiz informatika fanining biror mavzusi bo'yicha krossvord va boshqotirma tuzing.

3. O`qitishning interaktiv metodlarini o`tkazish tartibini taqqoslab o`rganing (kamida 2 – 3 ta interaktiv metodlar asosida).

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o`qitish metodikasi. Toshkent, “Talqin”, 2005 y.

2. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., “Moliya”, 2003y., 172 b.

4. To`raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T., “Fan”, 2006 y., 240 b.

5. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o`qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg`ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU, 2013 y.

6. Abdukarimov H., Suvonov O. Umumiy pedagogika: Texnologiya va amaliyot. O`quv-metodik qo`llanma. T., 2012 y., 120 b.

7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar (ta`lim muassasalari pedagog-o`qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent 2008 y., 181 b.

## **II MODUL. TA'LIM TIZIMIDA INFORMATIKA FANLARINING MAQSADI, MAZMUNI, UZVIYLIGI VA UZLUKSIZLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN INNOVASIYALAR**

**6-ma'ruza. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida informatika fanlarini o'qitish. Informatikani o'qitishda hamkorlikda, jamoada, muammoli o'qitish; modul, didaktik-o'yin texnologiyalari**

### **Reja:**

**1. Informatika o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlikda, jamoada va muammoli o'qitish texnologiyalari.**

**2. Informatika o'qitishda didaktik o'yin texnologiyalari.**

*Tayanch iboralar. shaxsga yo'naltirilgan texnologiya, hamkorlikda o'qitish texnologiyalari, jamoada o'qitish texnologiyalari, muammo, muammoli savol, muammoli vazifa, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat, muammoli o'qitish texnologiyalari, didaktik o'yin texnologiyalari.*

**1. Informatika o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlikda, jamoada va muammoli o'qitish texnologiyalari. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyili ta'lim markazida talaba (o'quvchi) qo'yiladi.**

Ta'lim samaradorligini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim muhim hisoblanib u quyidagilarga asoslanadi:

- shaxsning xususiyatlariga;
- uning oldingi tajribalariga;
- aqliy xususiyatlariga;
- ta'lim jarayoniga mos texnologiyalarni tanlashga.

**Hamkorlikda ta'lim olish metodi** ta'lim samaradorligini oshirish usullaridan biri bo'lib, uning asosiy g'oyasi turli o'quv holatlarida talaba (o'quvchi)larning faol o'quv faoliyatlari uchun sharoit yaratish ya'ni talabalar uchun ma'lumotlarning

axborot banki, nazorat-sinov banki, masofadan turib ta`lim olish, mustaqil ishlarni to`g`ri tashkillashtirish kabi muammolarning echilishida qo`l keladi.

**Hamkorlikda o`rganish modeli** – o`quvchilarning mustaqil huruhlarda ishlashi evaziga ta`lim olishini ko`zda tutuvchi metod.

Talabani mustaqil ishlashga o`rgatish birinchi navbatda dars mashg`ulotlarida etakchi va tajribali o`qituvchilarning ma`ruzalarini tinglash, konspektlar yozish va ularni to`ldirish, ilmiy va ilmiy-uslubiy jurnallardagi maqolalarni o`rganish, darslik va adabiyotlar bilan ishlashga, elektron manbalardan foydalanishga o`rganishdan boshlanadi. O`quv materialining samarali o`zlashtirilishi amaliy, seminar va laboratoriya mashg`ulotlarida va talabalarning jamoa bo`lib ta`lim olishlarida davom ettiriladi.

**Muammoli ta`limning asosiy maqsadi.** “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning talablari asosida bilim oluvchilarning mustaqilligi va faolligini oshirish, tafakkurini rivojlantirish, o`zlashtirilgan bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishini kuchaytirishdan iboratdir. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda muammoli ta`limning ilmiy-nazariy asoslari haqida gap borganda, uni ta`limning metodi, printsiplari yoki alohida tizim deb hisoblash holatlari uchraydi. Muammoli ta`limni qanday nomlashdan qat`iy nazar uning asosiy hususiyati – bilim oluvchining aqliy faolligini oshirish, mustaqil, ilmiy, ijodiy izlanish, o`zi uchun yangi bilim, ko`nikma va malakalarni kashf etishdan iboratdir.

Demak, *muayyan mavzuni muammo shaklida olib chiqish yo`li bilan egallanadigan bilim, ko`nikma va malakalar yig`indisiga muammoli ta`lim deyiladi.*

Respublikamizda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta`lim jarayoniga tatbiq etilishi muammoli ta`limni hozirgi sharoitda dolzarb pedagogik masalaga aylantirdi.

Muammoli ta`lim o`zining maxsus tushunchalariga ega bo`lib, ularning mohiyatini bilmasdan turib, mashg`ulotlarni muammoli tarzda tashkil etib bo`lmaydi.

***Muammoli ta`lim quyidagi asosiy tushunchalarga ega:***

- *Muammo*
- *Muammoli savol*
- *Muammoli vazifa*
- *Muammoli topshiriq*
- *Muammoli vaziyat*

Muammoli ta`limning asosiy tushunchalariga izoh berishdan oldin, tayyor bilimlarni o`qituvchi tamonidan berilishi yoki o`quvchining mustaqil egallashini izohliko`rgazmali metodi natijasi sifatida aniq tasavvurlar hosil qiladigan, ongda saqlanadigan, zarur bo`lganda qayta tiklanishini aniqlaydigan axborot shaklidagi savolni tushunish o`rinlidir.

***Axborot shaklidagi savol:*** tayyor javobi bo`lgan, xotiradagi bilimlarga tayanib yechimi topiladigan holat bo`lib, “nima, kim, qachon, qayerda, qanday, qancha, qaysi, ...?” kabi so`roqlar asosida javobi aniqlanadi.

Muammoli ta`limning dastlabki tushunchasi ***muammo*** hisoblanadi.

Muammo yunoncha “problem” so`zidan olingan bo`lib, vazifa, topshiriq degan ma`noni anglatadi.

Tayyor javobi bo`lmagan, o`rganish, tadqiq etishni talab qiladigan nazariy yoki amaliy masala ***muammo*** hisoblanadi.

Inson hayoti va faoliyati jarayonida cheksiz muammolarga duch keladi. Shaxsiy muammolar, ijtimoiy muammolar, turmush muammolari, ta`lim-tarbiya muammolari va boshqalar. Bularning har biri o`ziga xos yechim yo`llariga ega. Ta`limiy muammolar bilim oluvchidan aqliy operatsiyalarni bajarishni talab etadi. Bu operatsiyalar muammoli holatning xususiyatidan kelib chiqib, bir-biridan farq qiladi. Muammoli savolda bajariladigan aqliy operatsiya muammoli vazifanikidan, muammoli topshiriqda bajariladiganlari muammoli vaziyatnikidan o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Muammoli ta`limning keyingi asosiy tushunchasi ***muammoli savol*** sanaladi. Muammoli savol axborot shaklidagi savoldan farqli o`laroq ***tafakkur qilish yo`li bilan izlangan noma`lumni topishni ta`minlaydigan so`roq bo`lib alohida holda, muammoli vaziyat va vazifalarning tarkibida bo`lishi mumkin. Muammoli***

*savolga fikr yuritish orqali javob topiladi. “Nima uchun, nima sababdan, buni qanday tushunsa bo’ladi, bundan qanday xulosa chiqarish mumkin...?” kabi so’roqlar muammoli savol paydo bo’lishini ta’minlaydi.*

Pedagogika fanining predmeti, maqsad va vazifalari mavzusi yuzasidan quyidagi savolni muammoli deb tavsiya etish mumkin:

**- Pedagogika faniga turlicha ta’riflar berilgan. “Pedagogika tarbiya haqidagi fandir” - degan ta’rif ko’p uchraydi. Siz shu qoidaga qo’shilasizmi yoki qo’shilmaysizmi? Siz qanday ta’rifni pedagogika fani uchun eng ma’qul deb sanaysiz? O’zingizga yoqqan ta’rifni izohlab bering.**

Bir nechta echimini kutayotgan muammoli savolning bir-biriga bog’liq holda qo’yilishi muammoli vazifani keltirib chiqaradi. **Muammoli vazifa** sharti aniq bo’lgan, kimdir tomonidan hosil qilingan, javobini topish doirasi cheklangan didaktik tushunchasidir.

Muammoli vazifaning mazmuni bilim oluvchiga aniq bo’lgan masalaning noaniq’i bilan ziddiyatlashuvidan iboratdir. Noaniq topilishi zarur bo’lib, izlanishni, fikrlashni, mantiqiy hulosalar chiqarishni ta’minlaydi. Muammoli vazifa albatta vazifa beruvchi tomonidan hosil qilinadi.

Pedagogika fanining ta’lim metodlari mavzusi yuzasidan talabalar uchun o’qituvchi tomonidan quyidagi **muammoli vazifalar** belgilanishi mumkin:

**- Ilg’or o’qituvchining darsiga kirib, uni tahlil qiling.**

**Ta’limning qanday metodlaridan foydalandi? Bu metodlar fanning va mavzuning mazmuniga qanday darajada mosligini izohlang.**

**- Sizningcha qanday metodlardan foydalanilganda dars yanada samarali bo’lishi mumkin edi?**

Bu vazifalarning echimini topish uchun talaba birinchi o’rinda mavzu yuzasidan mavjud bilimlarni mufassal egallashi, ta’lim metodlarini bilishi va bir-biridan farqlay olishi zarur. Shu asosda o’qituvchining yutuq va kamchiligini tahlil qila oladi.

Muammoli savol va vazifalar birgalikda muammoli topshiriqning tarkibida kelishi mumkin. **Muammoli topshiriq** - o’qituvchi, ta’lim beruvchi, kitob muallifi

tomonidan muammoli savol va vazifa shaklida bilim oluvchini muammoli vaziyatga tushiradigan o'quv topshirig'idir.

Muammoli topshiriqda muammoli savol va vazifalarning elementlari mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham muammoli vaziyatga olib kiradi.

***Muammoli vaziyat*** - sub`ektning psixologik holati bo'lib, muammo bilan duch kelganda aqliy qiyinchilikning paydo bo'lishi zudlik bilan hal qilishga halaqit beradigan yangi bilim va harakat usullarini izlash, ularni topib, hosil bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etishni ta`minlaydi.

Muammoli holat shaxsni yangi bilimlar olishga da`vat etadi. Ma`lumki, muammoli vaziyat hosil qilgandagina o'quvchilarni fikrlashga, munosabat bildirishga hamda xulosalar chiqarishga harakat qiladilar. Dars jarayonida o'quvchilar berilgan o'quv materialini eslabgina qolmay, balki uni boshqa materiallar bilan taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish, xulosa chiqarishga yo'naltirilmog'i kerak bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi ma`lum muammoli vaziyatni tashkil qilar ekan, eng avvalo, o'quvchiga qo'yilayotgan muammoni to'g'ri anglatish, unda muammoni yechishga qiziqish uyg'otish zarurdir.

Muammoli ta`limning mohiyati o'qituvchi tomonidan o'quv mashg'ulotida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, muammoli savol, topshiriq va vazifalarni bajartirish orqali yangi bilimlarni egallash bo'yicha ularning o'quv faoliyatini boshqarib borilishidir. Muammoli o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda o'qituvchi hech qachon o'quvchilarga tayyor javoblarni berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni egallashga yo'l ko'rsatishi, ayrim voqea, axborot va hodisalar misolida mustaqil ravishda uning echimi ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratishi lozim.

O'qituvchining faoliyati o'quv materiallarini bayon etishdan, o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish orqali mustaqil va ijodiy ishlashni tashkil qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini ob`ektiv baholash va rag'batlantirib borishdan iborat bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning zarur shartlaridan biri ta`lim jarayonida o'qituvchi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta`minlovchi,

yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, tafakkurini rivojlantirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatuvchi, hamkorlik qiluvchi shaxs sanaladi. Bunga muammoli ta'lim orqali erishish eng ma'qul yo'l hisoblanadi.

Muammoli ta'lim mustaqil, ijodiy va faol o'zlashtirishni ta'minlash bilan birga, keng qamrovli fikr yuritishga, avvaliga o'zi uchun yangi bilimlarni kashf etishga va keyinchalik ilmni, fanni rivojlantiradigan kashfiyotlar qilishga zamin hozirlaydi.

**2. Informatika o'qitishda didaktik o'yin texnologiyalari. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar.** Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;
- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni engish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;
- insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;
- o'yin ishtirokchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni talabalarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, konferentsiyalar, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin.

O'qituvchi-pedagog avval talabalarni individual(yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilinishi;
3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob - ahloq normalariga mos kelishi;
4. O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;
5. Mashg'ulotlar davomida didaktik printsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Quyida "Informatika" fanini o'qitishda tashkil etish va o'tkazish mumkin bo'lgan didaktik o'yinli mashg'ulotlardan ayrimlarining tafsilotlari keltiriladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orasida **konferentsiya mashg'ulotlari** ham muhim o'rin tutadi.

Konferentsiya mashg'ulotlari talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, qo'shimcha va mahalliy materiallari bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma

va malakalarini orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konferentsiya mashg'ulotini o'tishdan avval mashg'ulot mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko'zdan kechiriladi. Mashg'u-lotni o'tkazishdan 1 hafta oldin mashg'ulot mavzusi e'lon qilinib, unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Ushbu mashg'ulotda «Olimlar» rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, ma`ruza tayyorlash talabalarning ixtiyorida bo'ladi.

Ilmiy konferentsiya mashg'ulotini quyidagicha o'tkazish tavsiya etiladi:

**I.** O'qituvchining kirish so'zi. Bunda o'qituvchi mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va vazifalari, tegishli rollarni bajaruvchi «Olimlar» bilan talabalarni tanishtiradi.

**II.** Ilmiy ma`ruzalarni tinglash. «Olimlar» mavzu yuzasidan tayyorlagan ma`ruzalarini taqdimot va ko'rgazmali qurollar asosida bayon qiladilar.

**III.** Ma`ruzalar muhokamasi. Bunda «Olimlar» va guruhdagi boshqa talabalar o'rtasida mavzu yuzasidan bahs-munozara o'tkaziladi.

**IV.** Ilmiy konferentsiya yakuni. O'qituvchi mavzu yuzasidan eng muhim tushuncha va g'oyalarni ta`kidlab, darsni yakunlaydi.

**V.** Talabalarni baholash. Mashg'ulotda faol ishtirok etgan talabalar rag'batlantiriladi va reyting tizimiga muvofiq baholanadi.

**VI.** Uyga vazifa berish.

**VII.** Mashg'ulotni umumiy yakunlash.

“Kasb ta`limi metodlari” mavzusida o'tkaziladigan ilmiy konferentsiya mashg'uloti quyidagi loyiha bo'yicha o'tkazilishi mumkin.

Mavzu: “**Kasb ta`limi metodlari**”.

Mashg'ulotning borishi:

**I.** Tashkiliy qism.

**II.** Talabalarni mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.

Bu mashg'ulotni o'tishdan bir hafta oldin talabalarni 4 ta guruhga ajratamiz va ularga informatika fani sohasida faoliyat ko'rsatayotgan «Olimlar» maqomini beramiz.

**III.** Yangi mavzuni o'rganish: Talabalar guruhi o'z mutaxassisliklariga tegishli bo'lgan quyidagi mavzulardan biri bo'yicha ma'ruza tayyorlaydi.

1. Kasb ta'limi metodlari va ularning tavsifnomasi.
2. Reproduktiv va muammoli izlanish metodlari.
3. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar.

Har bir yo'nalish bo'yicha «Olimlar» maqomini olgan talabalar o'zlariga tegishli mavzu bo'yicha taqdimot va ko'rgazmali qurollar asosida qo'shimcha materiallardan foydalangan holatda ma'ruza qiladilar.

**IV.** Ma'ruzalar tugagach, talabalar o'rtasida bahs va munozara o'tkaziladi.

**V.** Mashg'ulotni umumiy yakunlash.

**VI.** Uyga vazifa berish.

Talabalarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda **ijodiy o'yinlar** muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni talabalar o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy qo'llanish va izlanish orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlar ijodiy o'yinlar deb ataladi.

Ijodiy o'yinli mashg'ulotlardan «Informatika» fanini o'qitishda, yani ma'lum bir mavzuni o'rganishda foydalanish mumkin. Bunda talabalar teng sonli guruhlarga ajratilib, ularga shartli ravishda «Professor», «Dotsent», «Katta o'qituvchi» deb nom beriladi. Bu erda mutaxassislarning har qaysi guruhi ijodiy izlanib, kelgusidagi ishlarini rejalashtirishga o'rganadilar. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni bajarib, dalil va isbotlar asosida o'z javoblarini bildiradilar.

Ijodiy o'yin mashg'ulotlarida guruhdagi barcha talabalar hamkorlikda ishlaydilar, avvalgi mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llaydilar. Bu esa ularda o'z bilim va iqtidoriga nisbatan ishonch hissini uyg'otadi.

Shunday qilib, didaktik o'yinli mashg'ulotlar orqali o'quvchi-talabalar yangi kasblar bilan tanishadilar, egallagan bilimlarini ta'limning qaysi sohalarida qo'llash mumkinligini ko'rsatadilar, ushbu fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil foydalanishga, o'z o'rtog'ining fikrini sabot va chidam bilan tinglashga, bilimlarini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashga o'rganadilar.

### **Mustaqil ish topshiriqlari.**

1. Informatika o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan, hamkorlikda, jamoada va muammoli o'qitish texnologiyalari haqida Sizing fikringiz?

2. Informatika o'qitishda didaktik o'yin texnologiyalari Sizda qanday xislatlar shakllanishi mumkinligini hohlaysiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. Toshkent, "Talqin", 2005 y.

2. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., "Moliya", 2003y., 172 b.

3. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T., "Fan", 2006 y., 240 b.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent 2008 y., 181 b.

5. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU, 2013 y.

## **7-ma'ruza. Informatikani o'qitishda rivojlantiruvchi ta'lim, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish. Multimediyali darslar asosida informatika ta'limi samaradorligini oshirish**

### **Reja:**

- 1. Informatikani o'qitishda rivojlantiruvchi ta'lim, tadqiqot metodi.**
- 2. Multimediali darslar asosida informatika ta'limi samaradorligini oshirish.**

**Tayanch iboralar:** *tadqiqot metodi, ilmiy metodlarni qo'llash, ta'limning liberallashuvi, mustaqil ishlash ko'nikmasini tarbiyalash, loyiha metodi. Mashg'ulotning tafsiloti.*

### **1. Informatikani o'qitishda rivojlantiruvchi ta'lim, tadqiqot metodi.**

O'qitish metodi sifatida **tadqiqotlar** o'quvchilarga inson hatti-harakatiga nisbatan savollar qo'yishni o'rganishga va ularga javoblarni esa faktlarni jiddiy tahlil qilish yordamida topishga ko'maklashadi.

Tadqiqot usulida o'qitish o'quvchilarda savol qo'yish jarayonida va javob qidirishda qiziqish uyg'otishni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodi bo'yicha o'qitish o'quvchilarni amaliy-ilmiy izlanish jarayonida

bevosita qatnashishini ta'minlaydi. Bunday yondashishning maqsadlaridan biri, mustaqil fikrlaydigan va aniq bilim olish tizimiga ega bo'lgan o'quvchilarni shakllantirishdan iborat.

Muammolarni aniqlashda va berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish davomida o'quvchilar hissiyotlarga berilishdan chetlanishga va ob'ektiv bo'lishga o'rganadilar.

Ular har qanday bilim nisbiy ekanligini, yangi ma'lumotlar paydo bo'lishi bilano'zgarishining mohiyatiga tushunib etadilar. O'quvchilar o'zlarining taxminlarini tekshirishni va turli xil axborotlar va mantiqlarni qo'llashni o'rganadilar.

O`qitishning tadqiqot usuli, olingan ma`lumotlarni tahlil qilish jarayonida o`quvchilarning yuksak darajada fikrlashlari uchun imkoniyat yaratadi. Ushbu metod bo`yicha ta`lim olayotgan o`quvchilar fan bo`yicha chuqur bilimga ega bo`ladilar, yangiliklarni tahlil qilishda barqaror malakaga ega bo`ladilar.

Tadqiqot metodi bo`yicha o`qitish muammoni tuza bilishdan, uni qo`ya bilishdan va ifodalashdan boshlanadi. O`quvchilarga kutilmagan, noma`lum voqea va hodisa tanishtiriladi. Muammo yoki hodisa bilan tanishganlaridan so`ng, ular shu muammoni echishning yo`llarini yoki hodisani tushuntirish variantlarini taklif qilishlari va savollar berishlari lozim. Agar dars ochiq xarakterda bo`lsa, qaralayotgan muammoni yaxshiroq tushunish va echish uchun axborot manbalarini, ma`lumot va dalillarni o`quvchilarning o`zlari topishadi. Ba`zi bir o`qituvchilar o`quvchilarga ma`lumotlarni kutubxonadan yoki kompyuterdan izlash vazifasini beradilar. Ba`zi darslarda esa ma`lumotlarni, axborotlarni o`qituvchining o`zi o`quvchilarga beradi, o`quvchilar bu ma`lumotlarni o`rganadilar va qonuniyatni qidiradilar hamda o`zlari ilgari surgan dastlabki gipotezalarini(farazlarini) tekshirib ko`rishga intilishadi, kiziqishadi. Nihoyat olingan dalillarga, natijalarga asoslanib o`quvchilar xulosalar chiqarishadi. Ular o`zlarining gipotezalarini qayta ko`rib chiqadilar, olgan natijalariga asoslanib yanada asosliroq tushuntira oladilar va yangi muammolarni qo`ya oladilar va ochishga kirishadilar.

O`qitishning bunday usuli o`z oldiga ikkita maqsadni qo`yadi:

- ilmiy metodlarni qo`llashni o`rganish va mazmunni o`zlashtirishga yordam berish;
- tadqiqot metodidan foydalana olish axborot(informatsiya) yig`ish kabi muhimdir.

Tadqiqot metodining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- haqqoniy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi;
- dalillarga e`tiborli va hurmat bilan munosabatda bo`lishni tarbiyalaydi;
- barcha bilimlarning nisbiy ekanligini tushunishga yordam beradi;
- mantiqiy fikrlashga o`rgatadi;

- yuzaki echilgan masalalar, muammolarga ishonchsizlik bilan qarash munosabatlarini tarbiyalaydi;

- oliy darajadagi fikrlashga turtki beradi;

- nafaqat mazmuni o'zlashtirishga, shuningdek ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, muammoni echish malakalarining hosil bo'lishiga yordam beradi.

Tadqiqot metodining kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- ko'p vaqt talab qiladi;

- o'quvchidan muammolarni echish va strategik rejalashtirish malakalariga ega bo'lishda rivojlangan ijodiy tafakkurni talab etadi;

- o'qituvchi "bilim beruvchi" bo'lib qolmay, balki undan o'quvchini mantiqiy asoslangan xulosa chiqarishga mohirona yo'naltirish talab etiladi.

**2. Multimediali darslar asosida informatika ta'limi samaradorligini oshirish.** Zamonaviy pedagogik texnologiyalar sharoitida ta'limni differentsiallash va individuallashtirishga keng imkoniyat yaratiladi. Zamonaviy mutaxassis tayyorlash muammolarini echish bevosita ta'limda yangi axborot texnologiyalariga asoslanishini taqozo etadi.

Axborot texnologiyalarini qo'llashda ta'lim mazmunini standartlashtirishdan individual va differentsiallashga yo'naltiriladi, natijada ta'limni individuallashtirish va bilimlarni o'zlashtirilishini boshqarish imkoniyatini yaratadi.

**Ta'limning liberallashuvi** ta'limdagi muhim muammolardan hisoblanib, oliy ta'limda talaba imkoniyati va qobiliyatidan kelib chiqib o'qish muddatini qisqartirish, uzaytirish yoki kunduzgi, kechki, sirtqi kabi ta'lim shakllarini tanlashi yoki qo'shimcha boshqa kasblarni egallashi huquqiga ega bo'lishiga qonuniy asos yaratilishi maqsadga muvofiqdir. Ta'limning liberallashishi talaba (o'quvchi)larni qachon o'zini-o'zi aqliy o'stirish va mustaqil o'qishning muhimligini, ahamiyatini anglashi bilan bog'liq bo'ladi.

Talabalarda **mutaqil ishlash ko'nikmasini tarbiyalash** sifatli mutaxassis tayyorlashning muhim vazifalaridan biri bo'lib, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Talabalarning mustaqil ishlari tizimi quyidagilardan iborat:

- o'quv fani, mazmuni ustida bajariladigan joriy ishlari ma`ruzalarni konspektlash, darslik va o'quv manbalari bilan ishlash, laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlari hamda nazorat topshiriqlarini echishga tayyorgarlik ko'rish;
- semestr davomida uy vazifalarining bajarilishi (mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash, mustaqil ravishda berilgan mavzuga doir ma'lumotlar to'plash va o'rganish);
- kurs ishlarini bajarish.

Ta`lim samaradorligini oshirishda ta`lim maqsadlari, metodlari, mazmuni, shakli, vositalari va jarayonlariga yangicha yondashuv asosida fanlarning integrallashuvi va sintezlashuvi ma`lum maqsadlarga yo'naltirilganligi uchun **loyihalash metodiga** tayanadi. Loyiha metodi asosiy e`tiborni kasbni egallashda kerakli shaxsiy qobiliyatlar va ko'nikmalarni o'rganishga qaratadi, loyiha, o'rganish jarayonida nazariya bilan amaliyotni bog'lashi, o'quvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirila oladigan, mehnatni tashkil etishga va amalga oshirishga yordam beradigan bo'lmog'i lozim. Loyiha usulining asosiy maqsadi topshiriqni bajarish uchun kerakli barcha bilim va ko'nikmalar jarayon davomida o'rganilishi darkor, bunda o'quvchilar berilgan topshiriqni bajarishda vazifalarni o'zaro taqsimlab, loyiha guruhi sifatida mustaqil ravishda rejalashtirishdan boshlab to amalga oshirish va xulosa chiqarishga qadar birgalikda ishlashadi.

Zamonaviy ta`limning samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki ta`limda belgilangan maqsadlarga erishish darajasi talaba aqliy faoliyatining qanchalik o'sganligi bilan o'lchanadi. Talabaning bilish jarayonidagi faoliyati faollashivuni o'qituvchi tomonidan tashkillashtirish deganda talabalarning o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish usullari va metodlaridan foydalanishga asoslangan o'quv materialini mustaqil, faol, maqsadli yo'naltirilgan shaklda o'rganish tushuniladi.

Ta`limda kutilgan natija pedagog va talaba (o'quvchi) orasidagi munosabatga ko'proq bog'liq bo'lganligidan, bu munosabatlar bilan bog'liq muommalarni

yechishga hizmat qiluvchi hamkorlik pedagogikasining rivojlanishiga ehtiyoj kuchaymoqda.

Ta`lim maqsadlariga erishishda pedagog va talabaning hamkorlikda faoliyat ko`rsatishi uchun o`rganilgan asosiy omillar quyidagilardir:

- samarali ta`limda pedagog va talabaning bilimi hamda malakasining o`rishini ta`minlash;

- talaba (o`quvchi) bilim olishiga ehtiyojining oshishi uning bilim olish faoliyatining faollashuviga, o`z navbatida o`qituvchining ham o`z ustida ishlashi va malakasining o`rishiga;

- talaba(o`quvchi)larning kichik guruhlarda ta`lim olishini modellashtirishga;

- talaba (o`quvchi)larning o`z-o`zining faoliyatini boholashga sharoit yaratish.

O`tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlarga asoslanib, informatika fanini samarali o`rganish bo`yicha quyidagi xulosalarni berish mumkin:

- o`rganish rag`batlantirilishi kerak (maqtoov orqali);

- o`quvchilar o`zlarining o`rganishdagi yutuqlari haqida xabardor bo`lsalar, qiziqtirish kuchaytiriladi;

- o`rganishning faol davrlarini tashkil qilish kerak;

- o`rganish o`tayotgan davrda ko`pgina qulay holatlarni qo`llash, o`quv vaziyatlarini o`zgartirib turish kerak;

- o`quvchilar qancha ko`p faol bo`lib o`rganishsa, o`zlashtirish davomli va muvaffaqiyatli bo`ladi, o`rganishning interaktiv usullaridan foydalanish va guruhiy o`rganishni o`tkazish kerak;

- o`quv jarayonida yordamchi usullarni qo`llash orqali o`rganish samarasini oshirish mumkin.

### **Mustaqil ish topshiriqlari.**

1. Informatikani o`qitishda rivojlantiruvchi ta`lim, tadqiqot metodi haqida Sizning fikringiz?

2. Multimediali darslar asosida informatika ta`limi samaradorligini oshirish haqida Sizning fikringiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o'qitish metodikasi. Toshkent, "Talqin", 2005 y.
2. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003y.
3. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., "Moliya", 2003y., 172 b.
4. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T., "Fan", 2006 y., 240 b.
5. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg'ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU, 2013 y.
6. Abdukarimov H., Suvonov O. Umumiy pedagogika: Texnologiya va amaliyot. O`quv-metodik qo'llanma. T., 2012 y., 120 b.
7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar(ta`lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent 2008 y., 181 b.

## **8-ma'ruza. Informatika darslarida o'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish, baholashning zamonaviy metodlari va vositalari**

### **Reja:**

- 1. Informatika darslarida bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish.**
- 2. Baholashning zamonaviy metodlari va vositalari.**

**Tayanch iboralar:** *o'qituvchining kasbiy faoliyati, talabaning mustaqil faoliyati, talabalar bilimini nazorat qilishning joriy, oraliq va yakuniy turlari, reyting ishlanmasi, talaba(yoki o'quvchi)larning bilimlarini baholash turlari.*

### **1. Informatika darslarida bilim, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish.**

Ta'lim mazmunini takomillashtirish o'qituvchining bilimi, pedagogik texnika va pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya tizimiga qay darajada qo'llay olish mahorati bilan uzviy bog'liq ekanligini avvalgi mavzularda ko'rib o'tdik.

O'qituvchining kasbiy faoliyati samarasi talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarda o'z ifodasini topadi. Talabaning mustaqil faoliyati uning erkin fikri asosida mantiqiy tafakkurning qay darajada rivojlangani bilan bog'liq. Bunda: "o'quv-bilish jarayonidagi mustaqillik", "ta'lim-tarbiya jarayonidagi faollik", "ijodiy qobiliyatning rivojlanganlik darajasi" talaba bilimini nazorat qilish va baholash texnologiyasining asosiy mezonini hisoblanadi. Bu ko'rsatkich talabani bo'lajak o'qituvchi sifatiga xos bo'lgan shaxsiy va kasbiy xislatlarini ham o'z ichiga qamrab olishi lozim. Demak, talaba shaxs sifatida va bo'lajak o'qituvchi sifatida qay darajada shakllangan hamda uning shaxsiy va kasbiy xususiyatlarida uzaro uyg'unlik bormi, degan savolga javob talaba faoliyatiga qo'yilgan baho hisoblanadi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholash aksariyat hollarda ta'lim jarayoniga xos qaytar aloqa vositasi sifatida qaraladi. Bunda bo'lajak mutaxassisning shaxsiy va kasbiy xislatlari qay darajada shakllanib kelayotganligiga

e`tibor berilmaydi. Bu xususiyatlarning nazardan chetda qolishi raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga bo`lgan e`tiborsizlikka olib keladi.

Talabalar bilimini nazorat qilish joriy, oraliq va yakuniy turlarga bo`linadi. Nazoratning joriy turi barcha o`zlashtirilishi lozim bo`lgan bilimlarni undan avval o`zlashtirilgan bilimlar darajasini prognoz qilish bilan bog`liq bo`ladi. O`quvchi yoki talaba dastur talablari asosida har bir mavzuni o`z vaqtida o`zlashtirib bora olishi yoki o`zlashtira olmasligi joriy nazoratda ma`lum bo`ladi. Joriy nazoratning afzalligi ham aynan mana shu joyda ko`rinadi. Demak, joriy nazoratning asosiy vazifasi o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malaka asosida navbatdagi o`zlashtirilishi lozim bo`lgan bilimlarni ilmiy-uslubiy jihatdan aniqlab borish hisoblanadi.

Ta`limning tizimiylik va izchillik qoidasiga muvofiq, oraliq nazoratda yirik mavzular, boblar yoki modullashtirilgan mavzular to`plamiga oid bilimlar baholanib boriladi.

Har ikkala nazorat turida talabalarning erkin fikr mustaqilligi va faolligiga alohida e`tibor beriladi. Bu jarayonda har bir talaba o`zini o`zi nazorat qilish imkoniyatiga ham ega bo`ladi.

Dasturda belgilangan soatlar (ya`ni rejadagi barcha mavzular) to`liq bajarilib bo`lingach, yakunni nazorat qabul qilinadi.

Yakuniy nazoratda ta`limning ilmiyligi va ta`lim-tarbiyaning birligi printsipligiga alohida e`tibor qaratiladi. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda B.Blumnnng pedagogic taksonomiyasiga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda talabaning qay darajada ta`limiy maqsadni qo`ya olishi va unga erishish yo`llari, ya`ni talaba bilimlarini qaysi bosqichga muvofiq kelishi aniq bo`ladi. Shu bilan birga, talabaning intellektual – ijodiy imkoniyatlari, o`quv-metodik tajribalari hamda professional tayyorgarligi xususida prognostik malumotlar olinadi. Bunda asosiy e`tibor talabani mustaqil bilim olish ishlariga, shu asosda, zarur ko`nikma va malakalarning nechog`li shakllanib borayotganligi hamda uni kasb amaliyotida qo`llay olish qobiliyatiga e`tibor qaratiladi. Bular talabaning

kasb faoliyatiga qay darajada kirib kelayotganligini baholash texnologiyasi hisoblanadi.

Umumiy o`rta ta`limda o`quvchi faoliyatini baholash va unga muvofiq keluvchi reyting tizimi joriy etilgan.

Oliy ma`lumotli bakalavr o`qituvchi kadrlar tayyorlaydigan DTS talabiga muvofiq ishlab chiqilgan reyting tizimida talabaning bilim sifatini nazorat qilish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

- nazorat turlari (joriy, oraliq. yakuniy);
- nazorat usullari (og`zaki, yozma, pedagogik test);
- baho shkalasi;
- talabaga qo`yilgan bahoni predmet bo`yicha umumiy baho (ball)ga birlashtirish.

Buni "Informatika fanini o`qitishda innovatsion texnologiyalar" fani bo`yicha joriy etilib kelinayotgan reyting ishlanmasi misolida quyidagicha ko`rsatish mumkin:

ma`ruza- 16soat, laboratoriya - 16soat va seminar 8-soat, jami - 40 soat

**“Optimal boshqaruv usullari” kafedrasi “Informatikani o`qitish texnologiyalari va loyihalashtirish” fanidan talabalar bilimini baholashning reyting jadvali (bahorgi (kuzgi) semestr)**

Mavzular №	Umumiy o'quv yuklama					Nazorat turi	Nazorat shakli	Ballar		Topshirish muddati (oy, hafta)
	Ma'ruza	Laboratoriya	Seminar	Mustaqil ta'lim	Jami			Maksimal ball	O'tish bali	
4 – semestr (6 – semestr)										
1 – 4		8	4	10	22	JN-1	Kunlik nazorat, uy vazifasi, referat, kollokvium, test	17		Aprel, 4- hafta

5 – 8		8	4	14	24	JN-2	Kunlik nazorat, uy vazifasi, referat, kollokvium, test	18		Iyun, 1- hafta
1 – 8	16					ON	Yozma	35		Iyun, 2- hafta
						JN+O N		70	39	
1 – 8	16	16	8	24	64	YaN	Yozma	30		Dekanat jadvali bo'yicha
								100	55	

**IO`M 2-kurs (3-kurs), Baholash mezonlari:** Maksimal ball - 100 ball.

O`tish balli - 56 ball

"A`lo" - 86 dan 100 gacha (86-100%)

"Yaxshi" - 71 dan 85 gacha (71-85)

"Qoniqarli" - 56 dan 70 gacha (56-70%)

"Qoniqarsiz" - 55% dan past.

*Eslatma:* 39% dan kam ball to`plagan talabalar YaN ga qo`yilmaydi.

Yakuniy nazoratga kirish balli - 39 ball.

Talabalarning bilimlarini nazorat qilish va baholash texnologiyasi yanada takomillashmog`i zarur. Ta`lim-tarbiyaning faol innovatsion noanaviy yo`llarini yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish, mustaqil fikrlash asosida ijodiylik muammolilikni talab etadi. Shunga muvofiq, ta`lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish hamkorlik faoliyatiga, ya`ni "sub`ekt-sub`ekt" munosabatiga asoslanadi. Bu munosabatga xos motivlar o`z-o`zini baholash va nazorat qilish tizimini yaratishni taqozo etadi.

**2. Baholashning zamonaviy metodlari va vositalari.** Talaba (yoki o`quvchi)larning bilimlarini baholash turlari va ularning afzallik hamda kamchiliklari.

**Baholash** – ta`lim jarayonining ma`lum bosqichida, o`quv mvqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilab qo`yilgan mezonlar asosida belgilash, o`lchash, tahlil qilish jarayonidir.

**O`quv maqsadlari  
sohalari**

Kognitiv o`quv Maqsadlari	Psixomotorik o`quv maqsadlari	Affektiv o`quv maqsadlari
Nazariy bilim, aqliy mahorat va ko`nikmalar sohasi	Hatti-xarakter bilan bog`liq ko`nikmalar sohasi	O`zini tutishi va hulq bilan bog`liq ko`nikmalar sohasi
-nazariy bilimlarni eslash; -nazariy materialni tushunish; -nazariy materialni tahlil qilish; -nazariy bilim natijalarini baholay olish.	-material bilan ishlash; -asboblarni qo`llash; -asbob-uskunalarni ishlata bilish.	-kasbga qiziqtirish; -mehnat qilishga intilish; -o`rganishga tayyorlik; -mas`uliyatni anglagan holda faoliyat ko`rsatish.

**Besh ballik baholash.**

**Afzalligi**

- ta`lim oluvchi rag`batlantiriladi;
- ta`lim oluvchining faoliyatini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi;
- ta`lim beruvchining vaqti tejaladi;
- ta`lim oluvchining yakuniy bilimi baholarning soniga qarab emas, sifatiga qarab baholanadi;
- baholash qulay bo`ladi;
- rasmiylashtirish hujjatlari kam bo`ladi.

**Kamchiligi**

- baholashning nisbiyligi;
- yozma nutqda xatolarni to`g`rilash imkoniyatining kamayishi;
- baholashning sub`ektivligi.

<b>Baholashning reyting tizimi.</b>	
<p style="text-align: center;"><b>Afzalligi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- haqqoniy baholanishi;</li> <li>- yozma nutqning o'sishi;</li> <li>- yozma nutqda xato va kamchiliklarni aniqlash imkoniyatlarining mavjudligi;</li> <li>- ta`lim oluvchining bilimga bo'lgan ishtiyoqining sezilarli darajada oshishi;</li> <li>- ta`lim oluvchini muntazam shug'ullanishga undashi.</li> </ul>	<p style="text-align: center;"><b>Kamchiligi</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ta`lim beruvchi ta`lim oluvchi bilan ishlaganda ko'p vaqt sarf qiladi;</li> <li>- ballarni hisoblash ko'p vaqtni talab qiluvchi murakkab jarayonligi;</li> <li>- baholash usullariga qarab ta`lim oluvchi og'zaki nutqining pasayishi;</li> <li>- ajratilgan vaqtning yetarli emasligi;</li> <li>- ta`lim oluvchini baholash <b>nazoratining murakkabligi va noqulayligi.</b></li> </ul>

### **Mezonga asoslangan baholash.**

#### **Afzalligi.**

- o'quv maqsadiga muvofiq baholanadi;
- ta`lim oluvchining bilimini baholaganda uning yo'l qo'ygan xatolari yaqqol ko'rsatib beriladi;
- baholanuvchi ta`lim olishga yo'naltiriladi;
- baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlari xolisona aniqlab beriladi, ularning o'z bilimi va malakalariga bo'lgan ishonchi oshiriladi;
- hamma uchun bir xil bilim va malaka talablari o'rnatadi;
- ta`lim mazmunm aniqlab beriladi;
- baholanuvchilarning o'z faoliyati natijalariga bo'lgan mas`uliyati oshiriladi.

#### **Kamchiligi.**

- mezonlarni ishlab chiqish ko'p vaqt talab qiladi;
- mezonlarning ob`ektivligi, haqqoniyligi va aniqligini ko'rsatishga nisbatan talablarining ko'pligi;
- ijtimoiy fan yo'nalishlari bo'yicha mezonlar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelinishi.

## **Me`yoriy(normaga asoslangan) baholash**

### **Afzalligi**

- o`qituvchi ortiqcha vaqt sarflamaydi;
- turli shart-sharoitga oson moslashish mumkin;
- baho bo`yicha ko`rsatkichlar umumiy tarzda olinadi;
- muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularni o`zlashtirish imkonini beradi;
- baholash natijasida guruh ichidan ma`lum qismini ajratib olish imkonini beradi.

### **Kamchiligi**

- baholashda bilim bilan xulqni baholash aralashtirilib yuboriladi;
- ba`zan xulqni baholash bilimni baholashni cheklab qo`yadi;
- baholar o`qituvchi tomonidan sub`ektiv belgilanishi mumkin;
- ta`lim oluvchiga nisbatan simpatiya ham bahoni yuqori qo`yib yuborishga olib keladi;
- bilimlarni ob`ektiv va haqqoniy baholashning pasayishiga imkoniyat yaratadi.

### **Mustaqil ish topshiriqlari.**

1. Informatika darslarida bilim, malaka va ko`nikmalarini nazorat qilish haqida Sizning fikringiz?
2. Baholashning zamonaviy metodlari va vositalari haqida Sizning fikringiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdukarimov H., Suvonov O. Umumiy pedagogika: Texnologiya va amaliyot.
2. Yuldashev U.Yu., Boqiev R.R., Zokirova F.M. Informatika o`qitish metodikasi. Toshkent, "Talqin", 2005 y.
3. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o`qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan amaliy mashg`ulotlar ishlanmalari. Guliston, GulDU, 2013 y. O`quv-metodik qo`llanma. T., 2012 y., 120 b.6.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar(ta`lim muassasalari pedagog-o`qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). Toshkent 2008 y., 181 b.
5. Saidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. T., 2003y.

6. Saidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar T., “Moliya”, 2003y., 172 b.

7. To’raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. T., “Fan”, 2006 y., 240 b.

# 1-laboratoriya mashg'uloti. Informatika o'qituvchisining pedagogik faoliyatini rejalashtirish

## Reja:

1. Talabalar loyihalari taqdimoti.
2. Taqdimot muhokamasi, baholash.
3. Informatika o'qituvchisining o'quv yili uchun innovatsion o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot tashkiliy- metodik, tarbiyaviy ishlari turlari va mazmunini rejalashtirish

3-slayd.					4-slayd.					
DARS O'TISH MAHORATI, DARS MAZMUNI VA METODINI BAHOLASH					BAHOLASH MEZONI VA KO'RSATKICHLARI					
F.I.SH.										
Mavzu:										
Dars turi:										
No	I. Dars o'tish mahoratini baholash	Baholash mezonlar				No	F.I.Sh.	Uy vazifa	Darsdagi faollik	Jami
		2	3	4	5		(1,0)	(1,0)	(2,0)	
1	Asosiy mavzuning aniq yo'natilganligi					1.				
2	Darining aniq reja asosida olib borilganligi					2.				
3	Ko'rganmali qorollardan samarali foydalanilganligi					3.				
4	O'qituvchining o'zini tuta bilishi					4.				
5	O'qituvchining o'quvchini o'ziga jalb qila olish mahorati									
6	O'qituvchining his-hayajon bilan dars o'tishi									
7	O'qituvchining o'quvchilarni faol qatnashish va savol berishga chaqira olishi									
8	O'qituvchi o'quvchilar tomonidan berilgan savol va javoblarga savodxonlik bilan munosabatda bo'lishi									
9	O'qituvchining nutq madaniyati									
10	Umuman olganda dars «yaxshi o'tildi»									
II. Dars mazmuni va metodini baholash										
11	Dars maqsadining aniq ifoda etilganligi									
12	O'qituvchi tanlangan metodga amal qilishi									
13	Metodikara yaxshi tushunishni namoyish etishi									
14	Dars mazmunini aniq ifoda etishi									
15	O'z vaqtida mantiqiy va tushunarli misollarning keltirilishi									
16	O'quv materialini tushunilganligini takshirib borilganligi									
17	Darsda kirish, asosiy qism, yakunlovchi qismlarning mavjudligi									
18	Umuman olganda dars yaxshi tuzilgan va yaxshi o'tildi									
Jami ball										

## 2-laboratoriya mashg'uloti. Informatika fanlarining mazmunini loyihalashtirish

### Reja:

1. Talabalar loyihalari taqdimoti.
2. Taqdimot muhokamasi, baholash.
3. Uzluksiz ta'lim turi, o'quv yili darajasida informatika ta'limi mazmuni loyihalashtirish. O'quv fani dasturi, ishchi dasturi asosida kalendar tematik rejani tayyorlash, o'quv mashg'uloti darajasida informatika mazmunini loyihalashtirish, ilmiy axborotni o'quv axboroti sifatida qayta ishlash.

### Faollashtiruvchi savollar:


1. O'quv fan dasturi va ishchi dastur farqi nimada?
2. Kalendar tematik reja nima?
3. Loyihalashtirishga ta'rif bering.

I/R	Mavzu	Ajratilgan vaqt (soat hisobida)	Mashg'ulot turi	Ta'lim metodlari	Predmet-lararo aloqadorlik	Axborot manbalari, jihozlar va materiallar	O'quvchilarning auditoriyadagi bajaradigan mustaqil ishlari	Foydalaniladigan manbalar	Nazorat turi	Uyga vazifa	Sana va guruhlar					Izoh	
											1	2	3	4	5		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12					13	
1.	Mikroprosessor. Protessorning rivojlanish tarixi.	2	Nazariy.	Ma'ruza	Matematika	Kompyuter . plakatlar. kodoskop	Topshiriqni bajarish	1. S.K.G' amiyev. A.A.G' amiyev. "Elektronika va mikroelektronika" 2. "Elektronika va mikroelektronika" 3. "Elektronika" 4. "Elektronika" 5. "Elektronika"	Og'zaki, test	133 - 138							
2.	Protessorning parametrlari. Shinalar.	2	Nazariy.	Ma'ruza	Matematika Fizika	Kompyuter . plakatlar. kodoskop	Amaliy ishini bajarish		Og'zaki, test	205 - 222							
3.	Sanoq sistemalari.	2	Nazariy.	Ma'ruza	Matematika Fizika	Kompyuter . plakatlar. kodoskop	Topshiriqni bajarish		Og'zaki, test	259 - 264							
4.	Dokilik sanoq sistemasi.	2	Amaliy.	Amaliy. ish usuli	Matematika Fizika	Kompyuter . plakatlar. kodoskop	Amaliy ishini bajarish		Og'zaki, test	303 - 323							
5.	Sakkizlik sanoq sistemasi.	2	Amaliy.	Amaliy. ish usuli	Matematika Fizika	Kompyuter . plakatlar. kodoskop	Topshiriqni bajarish		Og'zaki, test	36-39							
6.	O'n oltilik sanoq sistemasi.	2	Amaliy.	Amaliy. ish usuli	Matematika Fizika	Kompyuter . plakatlar. kodoskop	Topshiriqni bajarish		Og'zaki, test	39-40							
7.	Sanoq sistemasida arifmetik amallar. ON-1.	2	Amaliy.	Amaliy. ish usuli	Matematika Fizika	Kompyuter . plakatlar. kodoskop	Topshiriqni bajarish		Og'zaki, test	42-47							
8.	Algoritmlar va uning turlari	2	Amaliy.	Ma'ruza	Matematika Fizika	Kompyuter . plakatlar.	Topshiriqni bajarish		Og'zaki, test	47-49							
9.	Blok-sxema tuzish.	2	Amaliy.	Amaliy. ish usuli	Matematika Fizika	Kompyuter . plakatlar.	Topshiriqni bajarish		Og'zaki, test	36-39							

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni

o'ratib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.




**Belgilar:**

1-ta'lim oluvchilar

2-aylana stol

### **Davra stolining tuzilmasi**

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. SHundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.




### «VENN diagrammasi»

U ikki yoki undan ortiq katta o'lchamdagi o'zaro kesishuvchi aylanalar asosida tuziladi. Aylanalar orasida yozuv uchun yetarli joy qolishi kerak.

Bu diagramma asosan g'oyalarni bir-biridan ajratish uchun qo'llaniladi va taqqoslanayotgan ob'ektlarga xos umumiy va individual xususiyatlarini ko'rsatib beradi.

#### Vazifa.

“Venn - diagramma” asosida Umumta'lim maktablari va akademik litsey, kasb-hunar kollejlari “Informatika va AT” tuzilgan o'quv fan dasturi, o'quv fan ishchi dasturi, kalendar tematik rejalarni olib taqqoslang.



### **3-laboratoriya mashg'uloti. O'quv maqsadi va natijalarini loyihalashtirish**

#### **Reja:**

1. Talabalar loyihalari taqdimoti.
2. Taqdimot muhokamasi, baholash.
3. Uzluksiz ta'lim turi, o'quv yili darajasida informatika ta'limi maqsadi va natijalarini loyihalashtirish. O'quv maqsadlari taksonomiyasi.

#### ***Faollashtiruvchi savollar:***

1. Informatikani o'qitish maqsadi nima?
2. Informatikani o'qitish maqsadi, metod va vositalari, natijalarini loyihalashtirish deganda nimani tushunasiz.

#### ***T-sxema.***

T-sxema dars davomida universal grafik vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu texnologiya juda sodda, muammoning mavzu doirasi aniqlangandan so'ng quyidagi ko'rinishdagi T-sxemani tuzish kerak.

T-sxema texnologiyasining jadvali

Tarafdor

Muammo

Qarshi

Besh minutdan so'ng sxemaning chap tomonini to'ldirish lozim. Unda o'quvchilar belgilangan vaqt davomida mavzuga oid qancha fikrlar o'ylab topishgan bo'lsa, shuncha fikrlar ko'rsatiladi. Keyingi belgilangan vaqt davomida o'quvchilar sxemaning o'ng tomonini to'ldiradilar. Va nihoyat, yana shuncha vaqt mobaynida o'quvchilar o'zlarining T-sxemalarini boshqa juftlikning T-sxemasi bilan taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar.

#### **Vazifa.**

Uzluksiz ta'lim turi, o'quv yili darajasida informatika ta'limi maqsadi va natijalarini loyihalashtirish. O'quv maqsadlari taksonomiyasi nimalardan ibirat ekanligi muammo sifatida qo'yiladi.


**“LOYIHA” METODI**



**“Loyiha” metodi** - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo’yicha axborot yig’ish, tadqiqot o’tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruh bo’lishi mumkin, lekin har bir loyiha o’quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo’lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo’llay olishni talab qiladigan topshiriq bo’lishi kerak.

Loyiha o’rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo’lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



### **“Loyiha” metodining bosqichlari**

#### **“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo’yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig’adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalashtirishlari lozim.
3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta'lim oluvchilar bilan birgalikda "Baholash varaqasi"ni ishlab chiqadi.
4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.
5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini "Baholash varaqasi"da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.
6. Muhandis-pedagog va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

## **4-laboratoriya mashg'uloti. Informatikaga doir bilimlarni nazorat qilish va baholashning innovatsion metodlarini loyihalashtirish**

### **Reja:**

1. Talabalar loyihalari taqdimoti.
2. Taqdimot muhokamasi, baholash.
3. Nazorat turlari. Bilimlarni nazorat qilish va baholash. O'quv axborotining o'zlashtirilganlik darajalari. Baholash mezonlari. Pedagogik nazoratning tashxislovchi, ta'limiy va tarbiyaviy funksiyalarini rejalashtirish

### **Nazorat uchun savollar**

1. Sifat deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'lim sifati deganda nimani tushunasiz?
4. Baholash o'zi nima?
5. Ta'lim sifatini baholash deganda nimani tushunasiz?
6. O'quv jarayonining tashkiliy elementlari nimalardan iborat deb o'ylaysiz?
7. Ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
8. Baholash shakllari deganda nimani tushunasiz va ular nima xil shakldan iborat?
9. Baholash turlari necha xil bo'ladi?

### **«Qanday?» ierarxik diagrammasi**

«Qanday?» ierarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari:

1. Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biridir. «Qanday?» ierarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning quyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos bo'ladi.


2. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.

3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi kerak.

5. Yangi g'oyalarni qanday grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz tanlab oling( daraxt, kaskad va b.) Bunda muammo shajarasi ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

6. To'g'ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning echimini topish yengil kechadi.



**3-slayd.**

DARS O'TISH MAHORATI, DARS MAZMUNI VA METODINI BAHOLASH					
F.I.Sh.					
Mavzu:					
Dars turi:					
№	I. Dars o'tish mahoratini baholash	Baholash mezonlan			
		2	3	4	5
1	Asosiy mavzuning aniq yoritilganligi				
2	Darsning aniq reja asosida olib borilganligi				
3	Ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanilganligi				
4	O'qituvchining o'zini tuta bilishi				
5	O'qituvchining o'quvchani o'ziga jalb qila olish mahorati				
6	O'qituvchining his-hayajon bilan dars o'tishi				
7	O'qituvchining o'quvchilarni faol qatnashish va savol berishga chaqira olishi				
8	O'qituvchi o'quvchilar tomonidan berilgan savol va javoblarga savodxonlik bilan munosabatda bo'lishi				
9	O'qituvchining nutq madaniyati				
10	Umuman olganda dars «yaxshi o'tildi»				
II. Dars mazmuni va metodini baholash					
11	Dars maqsadining aniq ifoda etilganligi				
12	O'qituvchi tanlangan metodga amal qilishi				
13	Metodikani yanahli tushunishini namoyish etishi				
14	Dars mazmunini aniq ifoda etilishi				
15	O'z vaqtida mantiqiy va tushunarli misollarning keltirilishi				
16	O'quv materialini tushunilganligini tekshirib borilganligi				
17	Darsda kirish, asosiy qism, yakunlovchi qismlarning mavjudligi				
18	Umuman olganda dars yaxshi tuzilgan va yanahli o'tildi				
Jami ball					

**4-slayd.**

BAHOLASH MEZONI VA KO'RSATKICHLARI				
№	F.I.Sh.	Uy vazifa (1,0)	Darsdagi faollik (1,0)	Jami (2,0)
1.				
2.				
3.				
4.				

**T-sxema.**

T-sxema dars davomida universal grafik vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu texnologiya juda sodda, muammoning mavzu doirasi aniqlangandan so'ng quyidagi ko'rinishdagi T-sxemani tuzish kerak.

T-sxema texnologiyasining jadvali

Tarafdor	Muammo	Qarshi

Besh minutdan so'ng sxemaning chap tomonini to'ldirish lozim. Unda o'quvchilar belgilangan vaqt davomida mavzuga oid qancha fikrlar o'ylab topishgan bo'lsa, shuncha fikrlar ko'rsatiladi. Keyingi belgilangan vaqt davomida o'quvchilar sxemaning o'ng tomonini to'ldiradilar. Va nihoyat, yana shuncha vaqt mobaynida o'quvchilar o'zlarining T-sxemalarini boshqa juftlikning T-sxemasi bilan taqqoslash imkoniga ega bo'ladilar.

**Vazifa.**

Maktab, litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini qanday baholash kerak?

## **5-laboratoriya mashg'uloti. Hamkorlikda, modulli o'qitishni loyihalashtirish**

### **Reja:**

1. Talabalar loyihalari taqdimoti.
2. Taqdimot muhokamasi, baholash.
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari informatikasini hamkorlikda, modulli o'qitishni loyihalashtirish.

### ***Faollashtiruvchi savollar:***

1. Hamkorlikda o'qitish qanday amalga oshiriladi?
2. Jamoada o'qitish qanday amalga oshiriladi?
3. Kichik guruhlarda o'qitish qanday amalga oshiriladi?
4. Juftlikda o'qitish o'qitish qanday amalga oshiriladi?

1. Hamkorlik guruhleri kam sonli bo'lishi kerak. Guruh qanchalik kichik bo'lsa shunchalik har bir o'quvchi mas'uliyatliroq bo'ladi.

2. Har bir guruh a'zosining bilimini individual tartibda tekshirish lozim.

3. Davriy tartibda tanlab (oralatib) og'zaki so'rovlar o'tkazish foydali, bunday paytda o'quvchilar guruh a'zolari yoki butun sinf oldida guruh ishi haqida gapirib beradilar.

4. Barcha guruhlar ishini kuzatib borish va guruh a'zosining umumiy mehnatda ishtirok etgan hamma holatlarini qayd etish kerak.

5. Har bir guruhda «nazoratchi» bo'lishi kerak, u har bir guruhdoshidan nima uchun guruh berilgan savolga boshqacha emas, aynan shunday javob berganligini tushuntirib berishni so'rashi mumkin.

### **Kichik guruhlarda ishlash metodi**

Kichik guruhlarda ishlash talabalarning darsda faolligini ta'minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan auditoriyada o'rganishga imkoni tug'ildi, boshqalar fikrini qadrlashga o'rgatadi.

### **Qo'llanish usuli.**

1. Faoliyatni tanlash. Mavzuga oid muammo shunday tanlanadiki, natijada talabalar uni o'rganish (bajarish) uchun ijodiy faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi va vazifalar belgilab olinadi.

2. Zaruriy asos yaratish. Talabalar kichik guruh ishida qatnashishlari uchun tanlangan faoliyat bo'yicha ba'zi bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan egallagan bo'lishlari kerak.

3. Guruhni shakllantirish. Odatda xar bir guruhda 3-5 talaba bo'ladi (ehtimol, kam yoki ko'p bo'lishi mumkin). Agar guruhda ishlash u yoki bu yozma hujjat tayyorlashni talab etsa, yaxshisi 2-3 kishili guruh tuzilgani ma'qul. Guruh o'lchovi masalaning muhimligi, auditoriyadagi talabalar soni, talabalarning bir-biri bilan konstruktiv holatda o'zaro harakatiga bog'liq holda o'zgaradi. Eng yaxshisi, "getrogen" guruh tashkil etishidir (jinsi, o'zlashtirish darajasi va boshqa belgilar asosida). Guruhda ishlash talabalar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashga tayanadi (misol uchun, bir talaba munozarani boshqaradi, ikkinchisi yozib boradi, uchinchisi spiker (sardor) rolini o'taydi va hokazo). Auditoriyani guruhlarga ajratish, hohish bo'yicha yoki hisob bo'yicha amalga oshiriladi.


4. Aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish. Talabalarga faoliyatni bajarish bo'yicha aniq va hajm jihatdan ko'p bo'lmagan tushuntirish beriladi. O'qituvchi guruhlarining ishlash tezligi turlicha bo'lishini inobatga olgan holda vaqt chegarasini aytadi. Guruhlar kerakli materiallar va axborotlar bilan ta'minlanadi. Talabalar guruhda ishni boshlashlari uchun vazifalarini aniq tushunib etganligi tekshirib ko'riladi.

5. Qo'llab quvvatlash va yo'naltirish. O'qituvchi zarurat tug'ilsa guruhlar yoniga navbatma-navbat kelib to'g'ri yo'nalishda ishlayotganligini qayd etadi yoki ularga yordam beradi, guruhlarga ta'zyiq o'tkazilmaydi.

6. Muhokama qilish va baholash. Guruhlarda ish yakunlangach, ular natijalari bo'yicha axborot beradilar. Buning uchun xar bir guruh o'z sardorini belgilaydi. Zarurat tug'ilsa, faoliyat natijalari bo'yicha bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan yozilib boriladi. Muhimi, guruhning echimining asoslanishini aniqlashtirib olishdi. Agar vaqt etarlicha bo'lsa, u yoki bu fikrni argumentlashda

guruhlar bir-biriga savol ham berishlari mumkin. Kichik guruhlarda ishlash natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi. Bunda faoliyatni to'g'ri va aniq bajarish, vaqt sarfi asosiy mezon hisoblanadi.

Guruh bilan ishlash usuliga bog'liq holda o'tirish joylarini joylashtirishning quyidagi variantlari mavjud:



**Darsning mavzu:** Algoritmning asosiy tiplari: chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi algoritmlar.

**Darsning ta'limiy maqsadi:** o'quvchilarda algoritm tushunchasi, algoritmning asosiy xossalari, ularni tasvirlash usullari, algoritm turlari bo'yicha talabalarda tushuncha hosil qilish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ahloqiy tarbiya berish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** O'quvchilarning algoritmning tiplari haqidagi bilimlari, darslik ustida mustaqil ishlash ko'nikmalari, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish.

**Darsni jihozlash:** kompyuter, proektor, doska, tarqatma materiallar.

**Darsda foydalaniladigan texnologiya:** Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi (komandada o'qitish metodi)

**Darsning borishi:**

I. Tashkiliy qism

II. O'tgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash.

III. O'quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtirish.

IV. Yangi mavzuni o'rganish:

a) o`quvchilarni komandaga ajratib bir necha kichik guruhlarni tashkil etish hamda, har bir komanda a`zolari tomonidan belgilangan o`quv topshiriqlarini mustaqil ravishda sifatli bajarilishiga erishish;

**Topshiriqning didaktik maqsadi:** algoritm tushunchasi, algoritmning asosiy xossalari, ularni tasvirlash usullari, algoritm turlarini o`rganish.

№	O`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan materiallar yuzasidan o`quv topshiriqlari	Topshiriqni bajarish bo`yicha ko`rsatmalar	
1	Mavzu bo`yicha quyidagi savollarga javob tayyorlang		
2	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Algoritm deyilganda nima tushuniladi? Algoritm so`zi qayerdan kelib chiqadi?</li> <li>2. Algoritmning qanday xossalarini bilasiz?</li> <li>3. Algoritmni yozishning qanday usullarini bilasiz?</li> <li>4. Blok-sxema nima? Blok-sxemaning asosiy elementlarini ayting.</li> <li>5. Algoritmning turlarini sanab o`ting.</li> <li>6. Masalalarni EHM da yechish bosqichlarini sanab o`ting.</li> <li>7. Al-Xorazmiyning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?</li> <li>8. Masalani yechish algoritmini qanday usullar bilan ifodalash mumkin?</li> <li>9. Algoritmga qo`yiladigan talablarni sanab o`ting.</li> <li>10. Algoritmning qanday xossalarini bilasiz?</li> <li>11. Masala yechimi algoritmini tuzishda qanday qoidalarga amal qilish lozim?</li> <li>12. Chiziqli algoritm deb nimaga aytiladi?</li> <li>13. Tarmoqlanuvchi algoritmi ta`riflang va unga hayotiy masalalar keltiring.</li> <li>14. Takrorlanuvchi algoritmlarning vazifasini tushuntiring.</li> <li>15. Algoritmni ifodalashda blok-sxemalardan foydalanishning afzalliklarini aytib bering.</li> <li>16. Blok-sxema elementlarini chizib ko`rsating va ularning vazifalarini ayting.</li> </ol>	<p>O`quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang</p>	<p>Izoh</p>

17.Chiziqli tenglamalarni yechish algoritmini tuzing.		
18.Kvadrat tenglama ildizlarini aniqlash algoritmini ishlab chiqing va uni blok-sxemalar orqali ifodalang.		
19.Xalqa yuzini aniqlash algoritmini yarating.		

O`zlashtirgan bilimlaringiz asosida, darslik va qo`llanmalardan foydalanib quyidagi jadvalni to`ldiring.

Taqqoslanadigan jihatlar	Chiziqli algoritm	Tarmoqlanuvchi algoritm	Takrorlanuvchi algoritm

b) o`quv materialini yaxlit holda qayta ishlab chiqilishini amalga oshirish.

V. Yangi mavzu yuzasidan komandalar o`rtasida savol-javob, o`quv bahsi uyushtirish.

VI. O`quvchilar bilimini test savollari yordamida nazorat qilish va baholash.

VII. Yangi mavzuni qayta ishlash va yakunlash.

VIII.Uyga vazifa berish.

**"Besh minutlik esse"**

Yozma vazifaning ushbu turi dars oxirida qo`llaniladi. Uning maqsadi o`quvchilar o`rganilayotgan mavzu bo`yicha bilimlariga xulosa yasash bo`lsa, o`qituvchi uchun o`quvchilari ongida nimalar ro`y berayotganligini bilishdan iborat. o`quvchilardan quyidagi ikki vazifani bajarish so`raladi:

➤ mazkur mavzu bo`yicha nimalarni bilib olganliklarini va o`zlari javob ololmagan biror savolni yozib berish.

➤ o`qituvchi yozma ishlarni darhol yig`ib oladi, keyinchalik esa, ularni tahlil etib, olingan natijalardan keyingi darsni rejalashtirishda foydalanishi mumkin.

**Vazifa.**

«Informatika» fanidagi mavzular b'yicha berilgan interfaol usullari bilan tashkil etish uchun metodik tavsiyanomasini yozib bering.

## **6-laboratoriya mashg'uloti. Informatikani kasbga yo'naltirib muammoli o'qitishni (keys ) loyihalashtirish**

### **Reja:**

1. Talabalar loyihalari taqdimoti.
2. Taqdimot muhokamasi, baholash.
3. Informatikani kasbga yo'naltirilgan, tabaqalashtirilgan mashqlar asosida, muammoli o'qitish. Keysni loyihalash.

### **Blits savollar**

1. Muammo deganda nimani tushunasiz?
2. Muammoli vaziyat deganda nimani tushunasiz?
3. Keysi nima?

**“Muammoli vaziyat” metodi** - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.


“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.

### **“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:**

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

### **“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:**

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.




## **7-laboratoriya mashg'uloti. Interfaol metodlar, o'yin texnologiyasiga asoslangan darslarni loyihalashtirish**

### **Reja:**

1. Talabalar loyihalari taqdimoti.
2. Taqdimot muhokamasi, baholash.
3. Informatika ta'limida o'quvchilar bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish. Jamoada, kichik guruhlarda, juftlikda o'qitish, o'yin texnologiyasi orqali kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.

### **Faollashtiruvchi savollar:**

1. Hamkorlikda o'qitish qanday amalga oshiriladi?
2. Jamoada o'qitish qanday amalga oshiriladi?
3. Kichik guruhlarda o'qitish qanday amalga oshiriladi?



### «Qanday?» ierarxik diagrammasi

«Qanday?» ierarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari:

1. Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biridir. «Qanday?» ierarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning quyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos bo'ladi.


2. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.

3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi kerak.

5. Yangi g'oyalarni qanday grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz tanlab oling (daraxt, kaskad va b.) Bunda muammo shajarasi ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

6. To'g'ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning yechimini topish yengil kechadi.




**8-laboratoriya mashg'uloti. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv mashg'ulotini loyihalashtirish. Pedagogik loyihalarni baholash**

**Reja:**

1. Talabalar loyihalari taqdimoti.
2. Taqdimot muhokamasi, baholash.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, amaliy dasturlarga asoslangan ma'ruza, amaliy mashg'ulotlarni loyihalashtirish. Pedagogik loyihalar, jarayonlar va ularning natijalarini tahlil qilish va baholash.

***Faollashtiruvchi savollar:***

1. Informatika ta'limida AKT dan foydalanish deganda nimani tushunasiz?
2. O'quv jarayonida qanday tarzda AKT dan foydalanish mumkin?



## FSMU jadvali

Informatika darslarida Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash metodlari

<b>F</b> (Fikringizni bayon eting).
<b>S</b> (Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating).
<b>M</b> (Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
<b>U</b> (Fikringizni umumlashtiring).



## "Insert" texnologiyasi

Ushbu texnologiya yangi matn bilan ishlashga mo'ljallangan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Matni qo'lda qalam bilan o'qib chiqish.
2. o'qish davomida matnga maxsus belgilar qo'yib borish:
  - + buni bilaman;
  - buni bilmas edim;
  - ? buni mukammal bilmoqchi edim;
3. Matn bilan to'la tanishib chiqilgandan so'ng quyidagi jadval to'ldiriladi:

### Insert tenologiyasining jadvali

<b>Buni bilar edim.</b>	<b>Buni bilmas edim.</b>	<b>Mukammal bilishni hohlayman.</b>
+	–	?

## Test topshiriqlari

### №1 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 1; Qiyinchilik darajasi – 1;

Informatika fani o‘qitishda didaktik jarayon strukturasi
Motiv bosqich, o‘quv-bilim faoliyati va boshqaruvdan iborat
O‘quvchi va o‘qituvchining, birgalikdagi faoliyatidan iborat
O‘quvchining xususiy-o‘rganuvchanlik faoliyatidan iborat
Axborotni kiritish

### №2 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 1; Qiyinchilik darajasi – 1;

O‘quv reja nima?
oliy ta‘limning muayyan yo‘nalish yoki mutaxassisligi bo‘yicha o‘quv faoliyati turlari, o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me‘yoriy hujjat
Umumiy o‘rta ta‘lim va oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me‘yoriy hujjat
kurslarining tarkibi, ularni o‘rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan me‘yoriy hujjat
Umumiy o‘rta ta‘lim va oliy o‘quv yurtlarida soatlardagi hajmini belgilaydigan me‘yoriy hujjat

### №3 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;

Pedagogik texnologiyalarning umumiy didaktik tamoyillari nechta?
7 ta
2 ta
3 ta
8 ta

### №4 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;

«Klaster» so‘zining ma‘nosi
Shingil
Bo‘lak
Bo‘lim
Kesim

### №5 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari to‘g‘ri berilgan qatorni belgilang.
Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta‘lim, fan, ishlab chiqarish
Shaxs, uzluksiz ta‘lim, fan, ishlab chiqarish
Ta‘lim tizimi, shaxs, davlat va jamiyat

Davlat va jamiyat, ishlab chiqarish uzluksiz ta'lim
---

**№6 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Ishtirokchilarning ko'nikma va malakalarini, ularni biror narsaga nisbatan munosabatini o'zgartirishga yo'naltirilgan, guruxga muljallangan interfaol o'qitish usuli
--

Trening
---------

Metodika
----------

O'yinlar
----------

Debatlar
----------

**№7 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Rolli o'yinlarning mazmuni nimadan iborat?
--

Ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi
--

Qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamni xatti-harakati ishlab chiqiladi, o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi
--

Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish kompetensiyasi ishlab chiqiladi
---

Harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi va o'quvchilar bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yilgan talablar shakllanadi
--

**№8 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (KTMD) qachon qabul qilingan?
---

1997 yil 29 avgust
--------------------

Mustaqillik qabul qilingandan so'ng
-------------------------------------

1992 yil.
-----------

1994 yil 1 iyun
-----------------

**№9 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 3; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Qaysi nazorat turi ta'lim oluvchiga o'z fikrlarini bayon etish uchun qulay sharoit yaratadi?
--

Og'zaki nazorat
-----------------

Oraliq nazorat
----------------

Joriy nazorat
---------------

Yakuniy nazorat
-----------------

**№10 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 3; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Qaysi nazorat turi ko'proq texnologik va ob'ektiv hisoblanadi?
--

Test nazorati
---------------

Og'zaki nazorat
-----------------

Yozma nazorat
---------------

Yakuniy nazorat
-----------------

**№11 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 12 ; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik texnologiya usulining ilmiy-metodik asoslari qaysilar?
Pedagogik tizim nazariyasi, tizimli, texnologik yondashuv.
Bixevioristik ta'limot.
Ishlab chiqarish texnologiyasi
Ta'lim-tarbiya qonuniyatlari.

**№12 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 11; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Qandaydir masala yoki muammoni o‘qituvchining davriy maslahatlari yordamida yoki ularsiz, mustaqil o‘rganilish negizidagi talabning tizimli o‘quv faoliyati?
Mustaqil ta'lim
Nazariy ta'lim
Amaliy ta'lim
Laboratoriya

**№13 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik tizimning komponent (qism) lari?
Pedagogik tizim oltita qismdan tuziladi. O‘quvchi; ta'lim-tarbiyaning maqsadi; mazmuni. didaktik (o‘quv) jarayon; o‘qituvchi yoki ta'limning texnik vositalari; shakl va usullari
Didaktik (o‘quv) jarayon; o‘qituvchi yoki ta'limning texnik vositalari; shakl va usullari
O‘quvchi; ta'lim-tarbiyaning maqsadi
Pedagogik tizim o‘nta qismdan tuziladi

**№14 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“O‘quv vazifa», “ta'lim texnologiyasi” tushunchalari nimani o‘z ichiga oladi?
O‘quv vazifasi – ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmunini. Ta'lim texnologiyasi – o‘quv jarayoni: o‘qituvchi yoki ta'limning texnik vositalari; shakl-usullarini
Ta'lim texnologiyasi – o‘quv jarayoni: o‘qituvchi yoki ta'limning texnik vositalari; shakl-usullarini
Ta'lim-tarbiyaning shakl, usullari, qonuniyat va prinsiplarini
O‘quv vazifasi – ta'lim-tarbiyaning maqsadi va mazmunini

**№15 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 3; Qiyinchilik darajasi – 1;**

”Texnologiya” so‘zining lug'aviy ma'nosi qaysi javobda to‘g'ri ko‘rsatilgan?
Texne – mahorat, san'at, logos – tushuncha, ta'limot
Texnologiya – ishlab chiqarish usuli
Texne – texnika, logos – ta'limot.
Buyumni tayyorlash jarayoni

**№16 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 3; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“Texnologiya ” tushunchasiga ta'rif qaysi javobda to'g'ri berilgan?
Texnologiya – tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmui
Texnologiya – tayyor mahsulot olish usuli
Texnologiya – buyumni tayyorlash metodlari majmui
Texnologiya ishlab chiqarish jarayoni

**№17 Fan bob – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik texnologiya tushunchasiga YUNESKOning ta'rifi?
Pedagogik texnologiya- bu, ta'lim shakllarini qulaylashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o'zaro ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini belgilash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir
Pedagogik texnologiya- ta'lim-tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishish uchun qo'llaniladigan vositalar, usullar majmuidir
Pedagogik texnologiya- oldindan belgilangan, loyihalashtirilgan o'quv tarbiya jarayonini izchil amalga oshirishdir
Pedagogik texnologiya- amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir

**№18 Fan bob – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik psixologiya - ta'lim jarayonida qanday imkoniyatlar beradi?
ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olishga imkoniyat beradi
ta'lim jarayonida ko'nikmalarni egallash imkonini beradi
ta'lim qonuniyatlarini hisobga olish imkonini beradi
ta'lim jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olish imkonini beradi

**№19 Fan bob – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik texnologiyaning qonuniyati, prinsiplari?
Ta'lim-tarbiyaning birligi, yaxlitligi, ta'lim shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish), talaba va o'qituvchi faoliyatini oqilona uyushtirish
Ta'limning maqsadi, real, aniq, diagnostik bo'lishi, o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini ob'ektiv baholash
Ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining ta'sirini inobatga olish, bilim o'zlashtirish jarayonini uzluksiz kuzatib. Yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib berish
Ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan birga loyihani qayta ishlab chiqish, talabaning o'quv faoliyatini tasvirlaydigan loyihani tizimli yondashuv asosida tuzish

**№20 Fan bob – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik texnologiyalarni turlarini to'g'ri belgilang?
umumiy, xususiy, metodik, universal modulli kichik texnologiyalar
umumiy, xususiy, metodik texnologiyalar
xususiy, metodik, universal modulli kichik texnologiyalar
metodik, universal modulli kichik texnologiyalar

**№21 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik texnologiyalar falsafiy jihatdan qanday guruhlarga bo'linadi?
materialistik, idealistik, diniy, ilmiy
materialistik, idealistik
materialistik, idealistik, diniy
diniy va ilmiy

**№22 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik texnologiyalar ta'limni tashkil etishda yondoshuv jihatidan qanday guruhlarga bo'linadi?
biogen, psixogen, sotsiogen
biogen, psixogen
psixogen, sotsiogen
biogen, sotsiogen

**№23 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik texnologiyalar shaxsan psixik xususiyatlarini rivojlantirish jihatidan qanday guruhlarga bo'linadi?
axborot texnologiyalari, operatsion texnologiyalar, evristik texnologiyalar, estetik-axloqiy texnologiyalar, boshqaruvchilik xususiyatini rivojlantiruvchi texnologiyalar, suggestiv texnologiyalar
axborot texnologiyalari, operatsion texnologiyalar, evristik texnologiyalar
estetik-axloqiy texnologiyalar, boshqaruvchilik xususiyatini rivojlantiruvchi texnologiyalar, suggestiv texnologiyalar
operatsion texnologiyalar, evristik texnologiyalar, estetik-axloqiy texnologiyalar, boshqaruvchilik xususiyatini rivojlantiruvchi texnologiyalar

**№24 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Ta'lim tizimida munosabatlarning shakllanish jihatidan pedagogik texnologiyalar qanday guruhlarga bo'linadi?
avtoritar, didaktik markazlashgan, shaxsga yo'naltirilgan
avtoritar, didaktik markazlashgan
shaxsga yo'naltirilgan, avtoritar
didaktik markazlashgan, shaxsga yo'naltirilgan

**№25 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Taksonomiya atamasining ma'nosi nima?
---------------------------------------

Taksonomiya yunoncha taxis tarkib bo'yicha joylashuv va nomos – qonun ob'yektlarini o'zaro aloqadorlik asosida tasniflash va tizimlantirish
Taksonomiya yunoncha so'z bulib,tayanch signallar, harakatlarining muljalli asoslari
Taksonomiya grekcha so'z bo'lib, mo'ljallash degan ma'noni anglatadi
Taksonomiya lotincha so'z bo'lib, kasallik degan ma'noni anglatadi

**№26 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik tizim elementlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?
O'quvchi ta'lim – tarbiya maqsadlari,ta'lim – tarbiya mazmuni didaktik jarayonlar tashkiliy shakllar pedagogik yoki o'qitishning texnik vositalari
Maktab kollej , lisey oliy o'quv yurti
Bilim,ko'nikma, ijodiy faoliyat
Ta'lim tarbiyaning maqsad va vazifalari

**№27 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

O'qitishni jadallashtirish texnologiyasini kim ishlab chiqdi va hayotga joriy qildi.
V.F.Shatalov
Z.I.Kolmkova
N.F.Tolzina
V.I. Davdov

**№28 Fan bobini – 2; Fan bo'limi – 6; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Prinsip so'zi qanday ma'noni anglatadi?
Prinsip - lotincha asos,boshlanish
Prinsip- lotincha yul,usul.
Prinsip lotincha boshlanish.
Prinsip-lotincha tahlil

**№29 Fan bobini – 2; Fan bo'limi – 11; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Test nima?
Standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovdir
Aniq sotsiologik tadqiqotlarda foydalaniladigan tarqatma material, savolnoma
Shaxs ruhiyati va oldindan berilgan test me'yorlari bilan qiyosiy o'rganish metodi
Talabalarga baho qo'yish uchun, ularning bilimlarini tekshirish uchun tuziladigan topshiriq

**№30 Fan bobini – 2; Fan bo'limi – 11; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Fan bo'yicha test topshiriqlari soni ko'payishi bilan pedagogik o'lchash (baxolash. aniqlash) qanday o'zgaradi?
---

Ortadi
Kamayadi
O'zgaradi
Qonuniyati yo'q

**№31 Fan bobini – 2; Fan bo'limi – 11; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Test vazifasining sifati bilan o'quv jarayoni sifati orasidagi aloqa bog'lanish qanday?
Yuqori darajada bog'liq
Bog'liq
Uncha bog'liq emas
Hech bir bog'liqligi yo'q

**№32 Fan bobini – 3; Fan bo'limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Ritual so'zining ma'nosi qaysi javobda aniq berilgan.?
Lotincha - marosim. Xulq atvorning tarixiy shakli, o'zaro munosabatlarini qadr qimmatini anglatuvchi, bir maromga keltirgan harakatlar tizimi
Lotincha milliy qadriyat
Lotincha o'zini hayotga tayyorlash, kuchini namoyish etish
Lotincha har – bir odamning tajriba ortirishigi yordam beradi

**№33 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Nechanchi yilda Angliyada pedagogik texnologiya Milliy Kengashi (National council for educational Texnologiy) tashkil etildi.
1976-yil
1980-yil
1970-yil
1990- yil

**№34 Fan bobini – 2; Fan bo'limi – 11; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Ma'lum bir o'quv vazifasi bo'yicha talaba o'rganishining ayni natijasi deb qanday maqsadga aytiladi?
Oydinlashtirilgan maqsadga
Pedagogning mashg'ulotda talabaga bilim berish maqsadiga
Talabani fanni o'rganish maqsadiga
Talabani biror bir mavzuni o'rganish maqsadiga

**№35 Fan bobini – 1; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Muammoli o'qitish texnologiyasiga kim asos solgan?
Dj.Dyun
B.Blum
Kratvol
Bespalko

**№36 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 6; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishning qanday turlari mavjud?
kutilmagan – hayratlantiruvchi vaziyat, nizo vaziyati, faraz vaziyati, inkor vaziyati, nomuttanosiblik vaziyati, tanlash vaziyati, eksperiment vaziyati
kutilgan va kutilmagan
nizoli, faraz, inkor, kutilmagan
muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish turlari mavjud emas

**№37 Fan bobini – 4; Fan bo‘limi – 14; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Muammoli ta'lim qanday darajalarga bo‘linadi?
stixiyali muammoli daraja, o‘qituvchi aktiv-o‘quvchilar passiv daraja, o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorlikda, o‘quvchilar aktiv
o‘qituvchi va o‘quvchilar aktiv darajasi, o‘qituvchi va o‘quvchilar passiv darajasi
stixiyali, aktiv va passiv
muammoli ta'lim darajalarga bo‘linmaydi

**№38 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“Tarmoqlar” metodiga to‘g‘ri ta’rifni toping.
o‘quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan
o‘quvchi-talabalarning erkin fikrlashi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan
harakatlar ketma ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, xilma xil ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan
o‘quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to‘g‘ri javob berish, savolni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatishga qaratilgan

**№39 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“3x4” metodining ta’rifini belgilang.
o‘quvchi-talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan
harakatlar ketma ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, xilma xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan
o‘quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to‘g‘ri javob berish, savolni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatishga qaratilgan
o‘quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan

**№40 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“Blits-o‘yin” metodi qanday metod?
------------------------------------

harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmeti asosida ko‘p, xilma xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan
o‘quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to‘g‘ri javob berish, savolni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatishga qaratilgan
o‘quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan
o‘quvchi-talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishiga qaratilgan

**№41 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“Inter'vyu” texnikasi qanday texnika?
o‘quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to‘g‘ri javob berish, savolni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatishga qaratilgan
o‘quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan
o‘quvchi-talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g‘oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil eta olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan
harakatlar ketma ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, xilma xil ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan

**№42 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“Terarxiya” texnikasiga qaysi javobda to‘g‘ri ta'rif keltirilgan?
oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o‘tish usullarini qo‘llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan
o‘quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saqlab qolishga qaratilgan
o‘qituvchilarni auditoriya diqqatini o‘ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga, uni tashkil etishni o‘rgatishga qaratilgan
o‘qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o‘rgatishga qaratilgan

**№43 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“Bumerang” texnikasiga qaysi javobda to‘g‘ri ta'rif keltirilgan?
o‘quvchi-talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o‘rganilgan materialni yodda saqlab qolish, so‘zlab bera olish, fikrni erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o‘quvchi-talabalarni baholay olishga qaratilgan
oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o‘tish usullarini qo‘llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o‘rgatishga qaratilgan

o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan
o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari, hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan

**№44 Fan bobini – 3; Fan bo'limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“Muloqot” texnikasiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif keltirilgan?
o'qituvchilarni auditoriya diqqatini o'ziga jalb etish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga, uni tashkil etishni o'rgatishga qaratilgan
o'quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan
o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, adabiyotlar-dan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan
talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etishi

**№45 Fan bobini – 3; Fan bo'limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“Boshqaruv” texnikasiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif keltirilgan?
o'qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda o'quvchi-talabalarni ish jarayonida boshqarish usullari bilan tanishtiruvchi va shunga o'rgatishga qaratilgan
o'quvchi-talabalarga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan
o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan
o'quvchi-talabalarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan

**№46 Fan bobini – 3; Fan bo'limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

“Case-study” texnologiyasining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
turli vaziyatli, shu jumladan, pedagogik vaziyatli masalalarni hal qilish mobaynida o'quvchilarning konseptual sxema va modellaridan amaliy foydalanish malakalarini, shuningdek, muammolarni guruhviy tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ishlab chiqarish orqali bilimlarini mustahkamlashdan iboratdir.
pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash uchun sharoit va imkoniyatlarni ochib berishdan iborat
yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni faqatgina o'qituvchining o'zi echa olishi va ularni talabalarga tushuntirib berishidan iborat
biror tashkilotdagi qandaydir aniq real vaziyatning yozma tavsifidir

**№47 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 13; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Keys — bu ...?
biror tashkilotdagi qandaydir aniq real vaziyatning yozma tavsifidir
muammoli vaziyat
muammoli vaziyatni aqliy hujum metodi yordamida hal etish
biror tashkilotdagi noaniq bo‘lgan vaziyatning yozma tavsifi

**№48 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 13 Qiyinchilik darajasi – 1;**

“Case-study” uslubidan ilk marta qachon va qaerda foydalanilgan?
1870 yili Garvard universitetining huquq maktabi o‘quv jarayonida
1920 yil Garvard biznes maktabida
1920 yil Garvard universitetining huquq maktabi o‘quv jarayonida
1870 yil Germaniyada universitetida

**№49 Fan bobini – 5; Fan bo‘limi – 6; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Keyslarni sinflarga ajratishda nimalar e'tiborga olinadi?
keyslar maqsad va o‘qitish jarayonining vazifalari, tuzilishi, ifodalash shakli, o‘lchami, murakkablik darajasi, fanlar, kompaniya turlari, hududlar va boshqa tomonlari bo‘yicha
maqsad va o‘qitish jarayoni bo‘yicha: qaror qabul qilishga o‘rgatish; vaziyat tamoyillari tahlili va baholashga o‘rgatish; shuning-dek, muammoni, echimni turlarga ajratish mumkin
tuzilishi bo‘yicha: tuzilmali keyslar (highly structured cases) aniq raqam va ma'lumotli vaziyatni qisqa va aniq bayon qilish
Ifodalash shakli bo‘yicha: qog‘oz keyslar; videokeyslar, multimedia keyslar

**№50 Fan bobini – 5; Fan bo‘limi – 7; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik texnologiyaning loyihachisi va uni amaliyotga joriy etuvchi kim?
Pedagog
O‘quv yurti
O‘qituvchi
Ta'lim jarayoni

**№51 Fan bobini – 4; Fan bo‘limi – 3; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Tadqiqiy – ijodiy yondashuv ta'lim jarayonida qanday ahamiyatga ega?
Ta'limning maqsadi talabada biror muammoni echish qobiliyatini o‘stirish yangi bilimni mustaqil o‘zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish shaxsan tashabbus ko‘rsatishini ko‘zda tutadi
Pedagogik texnologiya usulida ta'lim takror ishlab chiqiladigan konverli jarayon sifatida tashkil etiladi
Ko‘zlagan maqsadga kafolatlangan natija sifatida erishishni ifodalovchi jarayondir
Talabani bilim olishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi

**№52 Fan bobini – 4; Fan bo‘limi – 3; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Tadqiqiy ijodiy yondashuv ta'lim jarayonida qanday ahamiyatga ega?
Ta'limning maqsadi talabaga biror muammoni echish qobiliyatini o‘stirish, yangi bilimni mustaqil o‘zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko‘rsatishni
Pedagogik texnologiya usulida ta'lim takror ishlab chiqiladigan konveerli jarayon sifatida tashkil etiladi
Ko‘zlangan maqsadga kafolatlangan natija sifatida erishishni ifodalovchi jarayondir
Talabaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishni orttiradi.

**№53 Fan bobini – 4; Fan bo‘limi – 5; Qiyinchilik darajasi – 1;**

O‘qituvchi mahorati nimada o‘z aksini topadi?
Darsni aniq rejalashtirishda
Ta'lim jarayonini olib borishda
O‘quvchilarni darsga qiziqtirishga
Darsda texnik vositalaridan foydalana olishda

**№54 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 6; Qiyinchilik darajasi – 1;**

O‘qituvchining nutq yordamida, shuningdek imo ishora vositasida o‘z fikr va tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati qaysi qobiliyat turi?
Nutq qobiliyati
Kuzatuvchilik qobiliyati
Tashkilotchilik qobiliyati
Obro‘ orttira olish qobiliyati

**№55 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 6; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Differensiasiyani mazmuniga ko‘ra turlarini to‘g‘ri belgilang.
yosh xususiyatlariga qarab, qiziqishlariga qarab, shaxsiy-psixologik xususiyatlariga qarab, jismoniy xususiyatlariga qarab
ichki va tashqi
regional-maktab, maktabaro, ya'ni chuqurlashtirilgan sinflar, sinflararo, ya'ni fakultativlar, sinf ichidagi
ochiq va yopiq

**№56 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 6; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Differensiasiyani tashkil etilishiga ko‘ra turlarini to‘g‘ri belgilang.
regional-maktab, maktabaro, ya'ni chuqurlashtirilgan sinflar, sinflararo, ya'ni fakultativlar, sinf ichidagi
yosh xususiyatlariga qarab, qiziqishlariga, xususiyatlariga qarab
ichki va tashqi
ochiq va yopiq

**№57 Fan bobini – 5; Fan bo‘limi – 7; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik texnologiya asosida ta'lim maqsadining aniq ifodalanishi nimada namoyon bo'ladi?
O'quvchi bilimni qanchalik o'zlashtirganidan xabardorlik. Talabanning xarakatlari (faoliyati)ga asoslanib o'qitish
Talabanning xarakatlari (faoliyati)ga asoslanib o'qitish
Ta'lim jarayoniga yangiliklarni joriy etishda
O'quvchi bilimni qanchalik o'zlashtirganidan xabardorlik

**№58 Fan bobini – 5; Fan bo‘limi – 7; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Pedagogik texnologiyaning mohiyati nimada?
Ta'lim-tarbiya jarayonini oldindan loyihalash va so'ngra sinfda, auditoriyada o'quvchilar bilan birga loyihani qayta ishlab chiqishda
Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik tajribalarni qo'llashda
Ta'lim jarayonini turli interfaol metodlar asosida tashkil etishda
Ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalarni joriy eta olishda.

**№59 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 9; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Modul nima?
Modul lotincha «modulus» so'zidan olingan bo'lib, me'yor, o'lchov ma'nosini anglatadi.
Modul lotincha «modulus» so'zidan olingan bo'lib, boshlanish ma'nosini bildiradi.
Modul lotincha «modulus» ya'ni o'zlashtirish darajasi.
Modul lotincha «modulus» ya'ni mezon ma'nosini anglatadi.

**№60 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 9; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Modulli ta'lim dastlab qaysi mamlakat o'quv yurtlarida va malaka oshirish tizimida qo'llaniladi?
AQSh, Olmoniya, Angliya
Yaponiya, Fransiya, Vengriya
Angliya, Yaponiya, Fransiya
Yaponiya, Fransiya, Olmoniya

**№61 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 7; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Motiv tushunchasiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?
motiv-ma'lum ehtiyojlarini qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni
motiv o'zining bilimlarini chuqur-lashtirish tegishli malakalar hosil qilish
motiv ehtiyojini qondirish uchun shaxslarning ma'lum faoligini oshirish
motiv ta'limining maqsadi, vazifasi bilan o'qishni tashkil etish

**№62 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Modul darajasi deb nimaga aytiladi?
pedagogik texnologiyani tasvirlash ko‘lamiga muvofiq ravishda tanlangan birlamchi modullarning o‘z tarkibida aslida qancha modullarga ega ekanligi ko‘rsatkichi
pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadi asosida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yig'indisi
pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo‘laklarni ifodalovchi tushuncha
pedagogik texnologiya materiallarini modullarga ajratish jarayoni

**№63 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 9; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Modul to‘plami deb nimaga aytiladi?
pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadi asosida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yig'indisi
pedagogik texnologiyani tasvirlash ko‘lamiga muvofiq ravishda tanlangan modullarga ega ekanligi ko‘rsatkichi
pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo‘laklarni ifodalovchi tushuncha
pedagogik texnologiya materiallarini modullarga ajratish jarayoni

**№64 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 9; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Modullashtirish deb nimaga aytiladi?
pedagogik texnologiya materiallarini modullarga ajratish jarayoni
pedagogik texnologiyani uning biror darajasidan boshlab tasvirlash maqsadi asosida bitta modul sifatida hisoblangan bir nechta modullar yig'indisi
pedagogik texnologiyani tasvirlash ko‘lamiga muvofiq ravishda tanlangan modullarga ega ekanligi ko‘rsatkichi
pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo‘laklarni ifodalovchi tushuncha

**№65 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 3; Qiyinchilik darajasi – 1;**

An'anaviy pedagogikadagi metodik ishlanmalardan pedagogik texnologiya usulidagi ishlanmalarning farqi nimada?
O‘quvchini o‘quv-bilish faoliyatini shakllari va mazmunini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini ishlab chiqishda
Ta'lim jarayonida ko‘proq axborot berilishida
Ko‘proq noan'anaviy usullarga asoslanilgan dars ishlanmalarini ishlab chiqishda
Dars ishlanmalarida o‘quvchini ko‘proq baholash uchun topshiriqlar mavjudligida

**№66 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 9; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Modulli o‘qitish texnologiyasining tamoyillari qaysilar?
--

faoliyatlilik, tenglik va tenghuquqlilik, tizimli kvantlash, motivasiya, modullik tamoyili, muammolik, kognitiv vizuallik, xatoliklarga tayanish, o'quv vaqtini tejash tamoyili
muammolik, kognitiv vizuallik, xatoliklarga tayanish, o'quv vaqtini tejash tamoyili
faoliyatlilik, tenglik va tenghuquqlilik, tizimli kvantlash, motivasiya
tarixiy, muammoli, tizimli, nazariy, tajribaviy, umumlashtirish, qo'llanish, xatoliklar, ulanish, chuqurlashtirish, test-sinov

**№67 Fan bobini – 2; Fan bo'limi – 9; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Modul elementlari qaysilar?
tarixiy, muammoli, tizimli, nazariy, tajribaviy, umumlashtirish, qo'llanish, xatoliklar, ulanish, chuqurlashtirish, test-sinov
faoliyatlilik, tenglik va tenghuquqlilik, tizimli kvantlash, motivasiya, modullik tamoyili, muammolik
muammolik, kognitiv vizuallik, xatoliklarga tayanish, o'quv vaqtini tejash tamoyili
faoliyatlilik, tenglik va tenghuquqlilik, tizimli kvantlash, motivasiya

**№68 Fan bobini – 3; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Ta'lim-tarbiya jarayonini optimal loyihalash, modellashtirish tizimi va mexanizmi nimaning predmeti hisoblanadi?
Pedagogik texnologiyani
Masofaviy ta'limning
Ta'lim jarayonining
Pedagogik mahoratning.

**№69 Fan bobini – 3; Fan bo'limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Xulq atvorning tarixiy shakli, o'zaro munosabatlarni qadr-qimmatini anglashuvchi bir maromga keltiruvchi harakatlar tizimi deb nimaga aytiladi?
Ritual
Pedagogik texnologiya
Internet
Muloqot

**№70 Fan bobini – 3; Fan bo'limi – 1; Qiyinchilik darajasi – 1;**

Faoliyat deb nimaga aytiladi?
Insoning ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirishga qaratilgan hatti-harakatlari yig'indisiga aytiladi
Insonlarning moddiy va ma'naviy faoliyatlarini qondirish
Bilim, ko'nikma va malakalarini egallashni shakllantirish
Ijtimoiy tajribani o'zlashtirish

**№71 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Nostandart vaziyatlardagi mahsuldor harakat nimani anglatadi?
Faoliyatning evristik darajasini
Masalalarni echish qobiliyatini.
Qayta tiklash evaziga yangi axborot qo‘lga kiritishini
Davlat ta'lim standartidan tashqari faoliyatni.

**№72 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Reproduktiv faoliyat nima?
O‘quv predmetida dastlab bilib olingan ma'lumotlarga o‘quvchi o‘qish davomida biror axborot qo‘shmaydi
Bilim olgan axborotlardan foydalanish
Bilish faoliyati
O‘kuv predmeti mazmunini o‘zlashtirish

**№73 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Mahsuldor faoliyat nima?
O‘quvchi o‘quv predmetida o‘zlashtirib olganiga nisbatan yangi axborotni yuzaga keltiradi
O‘quvchi noaniq vaziyatni aniqlashtiradi
O‘quvchi o‘kuv elementlarini o‘zlashtiradi
O‘quvchi ma'lum bir harakatni bajarishga harakat qiladi

**№74 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Faoliyatning evristik darajalari qaysilar?
Nostandart vaziyatlardagi mahsuldor harakat
Qayta tiklash evaziga yangi axborotni qo‘lga kiritish
Masalalarni echish qobiliyati
Kitobdagi mavjud materiallarni yaxshi o‘zlashtirib olish

**№75 Fan bobini – 1; Fan bo‘limi – 2; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Faoliyatning ijodiy darajasi nima?
Faoliyatning yangi qirralarini tadqiq qiluvchi mahsuldor harakat
O‘quvchining materalini mustaqil o‘zlashtirishi.
Keng doiradagi bilimlarni qo‘llash.
Bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish.

**№76 Fan bobini – 2; Fan bo‘limi – 11; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Baholash, individual koeffitsiyent ma'nosi nimani anglatadi?
Reyting degan ma'noni anglatadi
Og'zaki javob berish usulini anglatadi.
Ta'lim imkoniyatlarni anglatadi.

Talabaning bilim o'zlashtirishni anglatadi.

**№77 Fan bobi – 1; Fan bo‘limi – 3; Qiyinchilik darajasi – 2;**

An'anaviy yondashuvga tushuntashiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping?

o'qituvchi ma'lum axborotni gapirib beradi, tushuntiradi talaba esa bu bilimlarni xotirasida saqlaydi

o'quv tarbiyaviy jarayoni rejallashtirish.

esda qoldirishning natijasi.

talabaning o'zlashtirish darajasi noaniqligi

**№78 Fan bobi – 2; Fan bo‘limi – 9; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Amalli o'yinlarning mazmuni nimadan iborat?

tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitlarini modellashtiradilar

bo'lim, sex, korxon, tashkilotning faoliyatiga taqlid qilinadi

ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, hatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi

qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamni hatti-harakati ishlab chiqiladi

**№79 Fan bobi – 2; Fan bo‘limi – 9; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Rolli o'yinlarning mazmuni nimadan iborat?

ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi

qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamni xatti-harakati ishlab chiqiladi

ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi

**№80 Fan bobi – 2; Fan bo‘limi – 9; Qiyinchilik darajasi – 2;**

“Ishbilarmonlik teatri” o'yinlarning mazmuni nimadan iborat?

qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamni xatti-harakati ishlab chiqiladi

ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi

qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamni xatti-harakati ishlab chiqiladi

ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi

**№81 Fan bobi – 4; Fan bo‘limi – 3; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Interfaol metodlarda “Aqliy hujum metodi” dan foydalanish qanday samara beradi?

ijodiy tafakkurni rivojlantiradi

aqliy faoliyatni o'stiradi

fanga qiziqtiradi

mutaxassislikka yo'llaydi

**№82 Fan bobini – 4; Fan bo‘limi – 3; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Darslik nima?
pedagogik tizimning axborotli modeli
ta'lim mazmunini tashkil etuvchi manba
talaba mustaqil bilim olish uchun manba
ta'lim jarayonida qo‘llaniladigan vosita

**№83 Fan bobini – 5; Fan bo‘limi – 6; Qiyinchilik darajasi – 2;**

O‘zbekiston oliy maktablarining asosiy vazifasi nimadan iborat?
chuqur fundamental bilimga va amaliy tayyorgarlikka ega bo‘lgan keng yo‘nalishli mutaxassislarni shakllantirishdir
bo‘lajak mutaxassis shaxsini shakllantirish
o‘quv jarayoni samaraliligini ta'minlovchi pedagogik malakani shakllantirish
ta'lim jarayonini pedagogikaning yangi prinsiplari asosida tashkil etadi

**№84 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 1; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Pedagogik muloqot nima?
ta'lim oluvchilarning maqsadlari hamda ularning birgalikdagi faoliyatlari mazmunidan kelib chiqadigan o‘zaro aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish
pedagogik faoliyat munosabatlarini tashkil etadi
bir-birini anglash va qo‘llab-quvvatlashni tashkil etishdagi ko‘p qirrali jarayoni
pedagogik jarayonning asosiy birligi, o‘ziga xos tizimidir

**№85 Fan bobini – 3; Fan bo‘limi – 1; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Pedagogning kommunikativ madaniyati nima?
pedagogning kishilar bilan qisqa muddatda muloqot o‘rnatish olishi, ular bilan muloqot o‘rnatishga bo‘lgan domiy intilishi
pedagogning dunyoga, pedagog voqelikka va pedagogik jarayonga bo‘lgan intellektual va hissiy munosabati
o‘qituvchining ob'ektivlik mezoni, uning ma'niviy tayyorgarlik darajasi
pedagogik jarayonning asosiy birligi, o‘ziga xos tizimidir

**№86 Fan bobini – 4; Fan bo‘limi – 5; Qiyinchilik darajasi – 2;**

Munozara nima?
matbuotda, suhbatda biror bahsli masalani muhokama qilish, bahs, muayyan muammo bo‘yicha fikr almashishga asoslangan ta'lim metodi
